DISRATIONARE	
оправдываться, опровергать обвинение.	oqlamoq, ayblovni rad qilmoq.
DISREGARD	
1. несоблюдение; пренебрежение; 2. не принимать во внимание; не соблюдать.	1.amal qilmaslik; e'tiborga olmaslik; 2. e'tibor bermaslik; rioya qilmaslik.
DISREPUTE	
плохая репутация.	yomon obro'.
DISRUPTIVE	
CONDUCT	
недостойное поведение (в суде).	nomunosib hulk (sudda).
DISSEISE	
незаконно лишать владения недвижимостью.	ko'chmas mulk egaligidan noqonuniy mahrum qilmoq.
DISSEISEE	
лицо, незаконно лишенное владения недвижимостью.	ko'chmas mulk egaligidan noqonuniy mahrum bo'lgan shaxs.
DISSEISIN	
незаконное лишение владения недвижимостью.	ko'chmas mulk egaligidan noqonuniy mahrum qilish.
DISSEISOR	
лицо, незаконно лишившее кого-либо владения недвижимостью.	ko'chmas mulk egaligidan kimnidir noqonuniy mahrum qiluvchi shaxs.
DISSEMINATION	
распространение, разглашение (сведений).	tarqatish, e'lon qilish (ma'lumotlarni).
DISSENT	

1. расходиться во мнениях; 2. расхождение во мнениях, разногласие; 3. заявлять особое мнение.	1.fikrlar bo'yicha zid bo'lmoq; 2. fikrlardagi kelishmaslik, ziddiyat; 3. o'ziga xos fikr bildirish.
DISSENTER	
(from court) судья, заявивший особое мнение по делу; ~ **from judgement** судья, в порядке особого мнения не подписавший постановление суда.	**(from court)** ish bo'yicha o'ziga xos fikr bildiruvchi sudya; ~ **from judgement** o'ziga xos fikr tartibi bo'yicha sud qarorini imzolamagan sudya.
DISSENTIENT	
судья, заявляющий особое мнение.	o'ziga xos fikr bildiruvchi sudya.
DISSOLUTION	
1. расторжение; 2. прекращение (договора); 3. ликвидация; роспуск; 4. аннулирование; 5. распад; ~ **of marriage** расторжение брака; ~ **of Parliament** роспуск парламента; ~ **of a state** распад государства; ~ **of a treaty** расторжение договора.	1. bekor qilish; 2. (shartnomani) to'xtatish; 3. likvidatsiya; tarqatib yuborish; 4. kuchdan qoldirish; 5. buzilish; ~ **of marriage** nikohni bekor qilish; ~ **of Parliament** parlamentni tarqatib yuborish; ~ **of a state** davlatni buzilishi; ~ **of a treaty** shartnomani bekor qilish.
DISSOLVE	
1. расторгать; 2. прекращать; 3. ликвидировать; аннулировать; 4. распадаться.	1.bekor qilmoq; 2. tugatmoq; 3. yo'q qilmoq, bekor qilmoq; 4. tugatmoq.
DISTINCTION	
1. различие; различение; 2. отход от правила; **enforcement ~ s** различия в правоприменении; индивидуализация правоприменения.	1. farq; farqlash; 2. qoidadan chetga chiqish; enforcement ~ **s huquqni** ko'llashdagi farq, huquqni qo'llashni indivudiallashtirish.
DISTINCTIVENESS, DISTINCTNESS	
различительная сила (товарного знака).	farqlovchi kuch (savdo belgisi).
DISTINGUISH	

устанавливать различие по существу, доказывать неприменимость в качестве прецедента, отказываться считать прецедентом.	moxiyati bo'yicha farkni o'rnatish, kabul qilmaslikni vokelik sifatida holat bo'yicha isbotlash, vokelik bo'yicha rad qilmoq.
DISTORT	
извращать, искажать (факты).	(dalillarni) buzib ko'rsatmoq, noto'g'ri talqin qilmoq.
DISTRAIN	
завладеть имуществом в обеспечение выполнения обязательства; налагать арест на имущество в обеспечение долга.	majburiyat bajarilishini ta'minlashda mulkka egalik qilmoq; qarzni ta'minlashda mulkni hibsga olmoq.
DISTRAINEE	
лицо, у которого изъято имущество в обеспечение выполнения обязательства.	majburiyat bajarilishini ta'minlashda uchun mulki olib qo'yilgan shaxs.
DISTRAINER, DISTRAINOR	
лицо, завладевшее имуществом в обеспечение выполнения обязательства.	majburiyat bajarilishini ta'minlashda mulkka egalik qiluvchi shaxs.
DISTRAINMENT, DISTRAINT	
завладение имуществом в обеспечение выполнения обязательства; наложение ареста на имущество в обеспечение долга.	majburiyat bajarilishini ta'minlashda mulkka egalik qilish, qarzni ta'minlashda mulkni hibsga olish.
DISTRESS	
1. бедствие; нужда; 2. завладение имуществом в обеспечение выполнения обязательства; 3. наложение ареста на имущество; опись имущества; 4. имущество, взятое в обеспечение выполнения обязательства;	1. ofat; ehtiyoj; 2. majburiyat bajarilishini ta'minlashda mulkka egalik qilish; 3. mulkni hibsga olish; mulkni xatlash; 4. majburiyat bajarilishini ta'minlash uchun olingan mulk;
~ **sale** продажа описанного имущества; **person in** ~ лицо, потерпевшее бедствие; **warrant of** ~ приказ о принудительном изъятии имущества.	~ **sale** xatlangan mulkni sotish; **person in** ~ ofatdan zarar ko'rgan shaxs; **warrant of** ~ mulkni majburiy olish to'g'risidagi buyruq.

DISTRIBUTE	
1. раздавать; размещать; распределять (имущество умершего среди наследников); 2. распространять, сбывать; ~ **justice** отправлять правосудие.	1. tarqatmoq; taqsimlamoq; (marhum mulkini merosxo'rlar o'rtasida) taqsimlamoq; 2. yoymoq, tarqatmoq; ~ **justice** odil sudlovga yubormoq.
DISTRIBUTEE	
наследник по закону.	qonun bo'yicha merosxo'r.
DISTRIBUTION	
1. распределение; 2. распределение имущества умершего среди наследников по закону;	1. taqsimlash; 2. qonun bo'yicha merosxo'rlar o'rtasida marhum mulkini taqsimlash;
~ **of estates** 1. распределение, разграничение вещно-правовых интересов; 2. разграничение сословий; ~ **of justice** отправление правосудия; ~ **of powers** разграничение компетенции; **final** ~ окончательное распределение имущества умершего среди наследников; **tentative** ~ предварительное распределение.	~ **of estates** 1. ashyoviy-huquqiy manfaatlarni taqsimlash, boshqalardan ajratish; 2. tabaqalarni boshqalardan ajratish; ~ **of justice** odil sudlovga yubormoq; ~ **of powers** huquqiy/ vakolatni ajratish; final ~ marhum mulkini merosxo'rlar o'rtasida yakuniy taqsimlash; **tentative** ~ dastlabki taqsimot.
DISTRIBUTOR	
дистрибьютор, распределитель; агент по продаже; сбытчик.	distribyutor, taqsimotchi; savdo bo'yicha agent; tarqatuvchi.
DISTRICT	
район; округ (административный, судебный, избирательный); **assessment** ~ территориальная единица, где производится отдельная оценка подлежащего налогообложению имущества; **consular** ~ консульский округ; **judicial** ~ судебный округ;	tuman; okrug (ma'muriy, sud, saylov); **assessment** ~ mulkka soliq solishga tegishli alohida baholash amalga oshiriladigan hududiy birlik; **consular** ~ konsullik okrug; **judicial** ~ sud okrugi;
legislative ~ избирательный округ по выборам в законодательный орган.	**legislative** ~ qonunchilik organlarga saylov o'tkazish bo'yicha saylov okrugi.
DISTURB	
1. мешать использованию права; 2. причинять беспокойство.	1.huquqdan foydalanishga halaqit bermoq; 2. bezovtalik keltirmoq.

DISTURBANCE	
1. нарушение общественного порядка; 2. нарушение пользования правом; 3. Волнение, воспрепятствование использованию права. ~ **of franchise** нарушение избирательного права; недопущение к выборам; ~ **of public meetings** 1. нарушение порядка проведения собраний; 2. препятствование проведению публичных собраний;	1.jamoat tartibini buzish; 2. huquqlardan foydalanishni buzish; ~ **of franchise** saylov huquqini buzish; saylovga yo'l qo'yilmaslik; ~ **of public meetings** 1. yig'ilishlar o'tkazish tartibini buzish; 2. ommaviy yig'ilishlar o'tkazishga to'sqinlik qilish;
~ **of public worship** препятствование публичному отправлению религиозных обрядов; **cause** ~ **s** вызывать беспорядки.	~ **of public worship** diniy marosimlarning ommaviy o'tkazishga to'sqinlik qilish; **cause** ~ **s** tartibsizlik chaqirmoq.
DIVERT	
1. направлять по другим каналам; 2. переадресовывать (товар); 3. исключать деяние/субъекта из юрисдикции уголовных судов (с передачей в административную или специальную юрисдикцию).	1. boshqa kanallar orqali yo'llamoq; 2. faytadan yo'naltirmoq (mol); 3. harakatni to'xtatmoq, ya'ni subektni jinoyat sudi yurisdiksiyasidan (sud qilish huquqidan) (ma'muriyatga o'tkazish yoki maxsus sud qiluvchi organlarga o'tkazish).
DIVEST	
лишать (права собственности, полномочий, правомочий).	(egalik huquqi, vakolat, qonuniy huquqqa egaligidan) mahrum qilmoq.
DIVIDE	
1. делить(ся), подразделять(ся); 2. расходиться во мнениях.	1. bo'l(in)moq, ajra(l)moq; 2. fikrlar bo'yicha zid bo'lmoq.
DIVIDEND	
дивиденд; ~ **income** дивидендный доход; **accrued** ~ дивиденд, об'явленный к оплате; **accumulated** ~ накопленный дивиденд; **deferred** ~ **s** отсроченные дивиденды; **unpaid** ~ невыплаченный дивиденд.	dividend; ~ **income** divident daromad; **accrued** ~ to'lanadigan divident; **accumulated** ~ yig'ilgan divident; **deferred** ~ **s** kechiktirilgan dividentlar; unpaid ~ to'lanmaydigan divident.

DIVISIBLE	
делимый (договор).	bo‘linadigan (shartnoma).
DIVISION	
1. деление, разделение, раздел; 2. часть; раздел; отдел; отделение; 3. административный, избирательный округ; 4. расхождение во взглядах, разногласия; 5. разделение голосов при голосовании; ~ **of opinion** отсутствие единого мнения у судей; **administrative** ~ административное деление.	1.bo‘lish, bo‘linish, bo‘lim; 2. qism; bo‘lim; bo‘linma; 3. **ma’muriy**, saylov okrugi; 4. qarashlar bo‘yicha zid bo‘lish, qarama-qarshilik; 5. ovoz berishda ovozlarning bo‘linishi; ~ **of opinion** sudyalardagi yagona fikrning yo‘qligi; **administrative** ~ ma’muriy bo‘linish.
DIVORCE	
1. расторгать брак; разводиться; 2. расторжение брака, развод; ~ **court** суд по бракоразводным делам; ~ **decree** судебный приказ о разводе; **bill of** ~ решение суда о расторжении брака; **case of** ~ дело о разводе; **defended** ~ развод при возражении против него со стороны ответчика; **limited** ~ постановление суда о раздельном жительстве супругов.	1.nikohni bekor qilmoq; ajrashmoq; 2. nikohni bekor qilish, ajrashish; ~ **court** nikohdan ajratish ishlari bo‘yicha sud; ~ **decree** ajrashish haqida sud buyrug‘i; **bill of** ~ nikohni bekor qilish haqida sud qarori;**case of** ~ajrashish haqida ish; **defended** ~javobgar tomonidan unga e’tiroz ko‘rsatilgan holatdagi ajrashish; **limited** ~er-xotinlarning alohida yashashi to‘g‘risida sud qarori.
DIVORCEE	
разведенный муж; разведенная жена.	ajrashgan er; ajrashgan xotin.
DIVORCEMENT	
расторжение брака.	nikohni bekor qilish.
DIVORCER	
1. лицо, расторгающее брак; 2. основание, причина развода.	1.nikohni bekor qiluvchi shaxs; 2. ajrashish sababi, asosi.
DOCK	
скамья подсудимых.	sudlanuvchi kursisi.
DOCKAGE	
сбор за пользование доком, доковый сбор.	dok(port inshooti)dan foydalanish uchun yig‘im, dok(port inshooti) yig‘imi.
DOCKET	

1. досье производства по делу; книга записей; 2. вести досье; вносить в досье судопроизводства; 3. краткое содержание документа; выписка; 4. список дел к слушанию; 5. квитанция таможни об уплате пошлины; **appearance** ~ журнал судопроизводства по делу; **civil** ~ список гражданских дел к слушанию; **execution** ~ журнал исполнительного производства; **judgement** ~ журнал записей судебных решений; **trial** ~ список дел к слушанию.	1. ishni ko'rish bo'yicha hujjatlar to'plami; qaydlar kitobi; 2. hujjatlar to'plamini to'plamoq; 3. hujjatning qisqacha mazmuni; ko'chirma; 4. ko'riladigan ishlar ro'yhati; 5. boj to'laganligi haqida bojxona kvitansiyasi;**appearance** ~ish bo'yicha sudda ish yuritish jurnali; **civil** ~ko'riladigan fukarolik ishlari ro'yhati; **execution** ~ ijro ishi yuritish jurnali; **judgement** ~ sud qarorlarini qayd qilish jurnali; **trial** ~ ko'riladigan ishlar ro'yhati.
1. документ; свидетельство; 2. документировать, подтверждать документами; 3. выдавать документы; ~ **a case** приобщить документы к судебному делу; ~ **examiner** эксперт по документации; ~**s of the case in court** материалы судебного дела, судебное досье; **basic source** ~ первичный документ; **contested** ~ оспариваемый документ; **legal** ~ 1. правовой документ; 2. законодательный памятник; **original** ~ подлинный документ, подлинник; **private** ~ частно-правовой документ; **public** ~ публично-правовой документ; **settle** ~ составлять документ; **suppress** ~ изымать документ; **testamentary** ~ документ, содержащий завещательные распоряжения.	1. hujjat; guvohnoma; 2. hujjatlashtirmoq, hujjatlar bilan tasdiqlamoq; 3. hujjatlar bermoq; ~ a case sud ishiga hujjatlarni qo'shib qo'ymoq; ~ **examiner** hujjatlar bo'yicha ekspert; ~**s of the case in court** sud ishiga materiallari, sud ishiga doir hujjatlar to'plami; **basic source** ~birinchi darajali hujjat; **contested** ~ huquq tralashinadigan hujjat; **legal** ~ 1.huquqiy hujjat; 2. qonunchilik xaykali; **original** ~haqiqiy hujjat, asl nusxa; **private** ~xususiy-huquqiy hujjat; **public** ~ommaviy-huquqiy hujjat; **settle** ~hujjat tuzmoq; **suppress** ~hujjatni olib qo'ymoq; **testamentary** ~ vasiyat farmoyishini ichiga olgan hujjat.
DOCUMENTATION	
1. документы; документация; 2. выдача документов.	1. hujjatlar; dokumentatsiya; 2. hujjatlarni topshirish..
DOLUS	
умысел.	niyat, qasd, g'araz.

DOMAIN	
1. полная и абсолютная собственность недвижимости; 2. область, сфера; территория; ~ **of law** сфера действия права, сфера правоприменения; **eminent** ~ право государства на принудительное отчуждение частной собственности; **public/national** ~ государственная собственность.	1. to'liq va cheklanmagan ko'chmas mulk egaligi; 2. soha, muhit; hudud; ~ **of law** huquqni amal qilish sohasi, huquqni qo'llash sohasi; **eminent** ~ hususiy mulkni majburiy ravishda davlat ixtiyoriga o'tkazishga nisbatan davlat huquqi; **public/national** ~ davlat mulki.
DOMESTIC	
1. внутренний; внутригосударственный; 2. домашний.	1. ichki; davlat ichidagi; 2. uyga oid, xonaki.
DOMESTICATION	
приобретение статуса внутренней корпорации.	ichki korporatsiya maqomini qo'lga kiritish.
DOMICILE	
1. домициль; место оплаты векселя/внесения налогов; 2. домицилировать; ~ **by birth** домициль по рождению; ~ **by choice** избранный домициль;	1.domitsil-to'lov manzili; veksel/ soliq to'lovi to'lash joyi; 2. to'lovni yo'llamoq; ~ **by birth** tug'ilganlik bo'yicha domitsil; ~ **by choice** tanlangan domitsil;
~ **by operation of law** домициль в силу закона; ~ **of origin** домициль по происхождению; ~ **of succession** домициль, обусловливающий определение порядка наследования движимого имущества; **civil** ~ гражданский домициль; **commercial** ~ торговый домициль; **domestic** ~ муниципальный домициль; **elected** ~ договорный домициль; **fiscal** ~ налоговый домициль; **foreign** ~ иностранный домициль; **matrimonial** ~ супружеский домициль.	~ **by operation of law** qonun kuchidagi domitsil; ~ **of origin** kelib chiqishi bo'yicha domitsil; ~ **of succession** ko'chmas mulk vorisligini aniqlashga xizmat qiladigan domitsil; **civil** ~fuqarolik domitsili; **commercial** ~ savdo domitsili; **domestic** ~mahalliy domitsil; **elected** ~shartnomaga oid domitsil; **fiscal** ~soliq domitsili; **foreign** ~xorijiy domitsil; **matrimonial** ~er-xotinlik domitsili.
DOMICILED	
домицилированный; имеющий домициль.	domitsil qilingan, domitsilga ega.

DOMICILIATE	
определять домициль; домицилировать.	domitsilni aniqlamoq.
DOMICILIATION	
определение домициля; домицилирование.	domitsilni aniqlash.
DOMINANT	
1. господствующий; доминирующий; 2. пользующийся сервитутом.	1. hukmron; ustunlik qiluvchi; 2. servitutdan foydalanuvchi.
DOMINATE	
доминировать; господствовать, преобладать.	ustunlik qilmoq; hukmronlik qilmoq, ustun kelmoq.
DOMINION	
1. собственность и владение; 2. доминион; 3. верховенство; господство; власть.	1. mulk va egalik; 2. dominion; 3. ustunlik; hukmronlik; xokimyat.
DONATE	
1. дарить; передавать в дар; 2. амер. жертвовать.	1. hadya qilmoq; hadya sifatida topshirmoq; 2. amer. hayr-ehson qilmoq.
DONATION	
1. дарение; 2. дарственная.	1. hadya; 2. hadya qilingan.
DONATORY	
лицо, получающее дар.	hadyani oluvchi shaxs.
DONE	
учинено, совершено, составлено (о документе).	bajarilgan, qilingan, tuzilgan (hujjat haqida).
DONEE	
1. дарополучатель; 2. лицо, распределяющее наследственное имущество по доверенности.	1. hadyani qabul qiluvchi; 2. ishonchnoma asosida vorislik mulkni taqsimlovchi shaxs.
DONER	
вкладчик.	depozit kirituvchi.
DONOR	

1. даритель; 2. лицо, предоставляющее право; ~ **intestate** даритель, умерший без завещания; ~ **testate** даритель, умерший, оставив завещание.	1. hadya qiluvchi; 2. huquqni taqdim qiluvchi shaxs; ~ **intestate** vasiyatsiz vafot etgan hadya qiluvchi; 2. ~ **testate** vasiyatnoma qoldirib vasiyatsiz vafot etgan hadya qiluvchi.
DOOMSDAY	
день суда.	sud kuni.
DOOMSMAN	
судья.	sudya.
DORMANCY	
временное приостановление исполнения решения.	qaror ijrosini vaqtinchalik to'xtatib turish.
DOTAGE	
старческое слабоумие.	qarilikdan aqli zaiflik.
DOTATION	
1. дар, пожертвование; 2. предоставление приданого.	1.hadya, hayr-ehson; 2. sepni taqdim etish.
DOUBLE	
1. двойной; 2. копия, дубликат; 3. соединяющий разные основания иска; соединяющий разные защитные документы;	1.ikkilangan; 2. nusxa, dublikat; 3. da'voga turli asoslarni qo'shilishi; turli himoya hujjatlarini qo'shilishi;
~ **hearsay** показания через третье лицо; ~ **indemnity** двойное возмещение убытков; ~ **nationality** двойное гражданство.	~ **hearsay** uchinchi shaxs tomonidan ko'rsatma; ~ **indemnity** zarar ikki hissa qoplash; ~ **nationality** ikki fuqarolik, ikki mamlakatning fukarosi bulish.
DOUBT	
1. сомневаться, подвергать сомнению; 2. сомнение; **reasonable** ~ разумные основания для сомнения; разумное, обоснованное сомнение; **unreasonable** ~ необоснованное сомнение.	1. shubhalanmoq, shubhaga bormoq; 2. shubha; **reasonable** ~ shubha qilish uchun oqilona asoslar; oqilona, asoslangan shubha; **unreasonable** ~ asoslanmagan shubha.
DOWER	
вдовья часть наследства.	merosning bevaga tegishli ulushi
DOWNFALL	

падение, крушение; крах; разорение; банкротство.	qulash, halokat; barbod bo'lish; xonavayron bo'lish; bankrotlik.
DOWRY	
1. приданое; 2. пособие; **one-time** ~ единовременное пособие.	1. sep; 2. nafaqa; **one-time** ~ bir martalik nafaqa.
DOYEN	
дуайен, декан, старейшина.	duayen, dekan, stareyshina.
DRAFT	
1. проект; 2. составлять проект; 3. переводный вексель, тратта; 4. призывать в армию; **bank/banker's** ~ тратта, выставленная одним банком на другой; банковский переводной вексель; **issue** ~ выставлять переводной вексель/ тратту; **long** ~ долгосрочная тратта, вексель.	1.loyiha; 2. loyiha tuzmoq; loyixalashtirmok. 3. jo'natma veksel, tratta; 4. xarbiy xizmatga chaqirilmoq; **bank/banker's** ~ bir bankdan boshqasiga qo'yilgan tratta; bank jo'natma vekseli; **issue** ~ jo'natma veksel/tratta qo'ymoq; **long** ~ uzoq muddatli tratta, veksel.
DRAFTING	
составление проекта документа, составление законопроекта.	hujjatni loyihasini tuzmoq, qonun loyihasini tuzmoq.
DRAW	
1. составлять, оформлять (документ); 2. выписывать, выставлять (чек и т. п.), трассировать;	1. tuzmoq, rasmiylashtirmoq (hujjat); 2. yozdirib olmoq, taqdim qilmoq (chek va b.), yo'nalishni belgilamoq;
3. формировать состав присяжных; 4. разделение голосов поровну; ~ **money from an account** снимать деньги со счета; ~ **lots** тянуть жребий.	3. sud maslahatchilari tarkibini shakllantirmoq; 4. ovozlarni teng ajratish;~ **money from an account** hisobidan pul echmoq; ~ **lots** qur'a tashlamoq.
DRAWBACK	
1. ошибка, недостаток; 2. уступка; 3. возвратная пошлина; возврат пошлины.	1. xato, kamchilik; 2. yengillik; 3. qaytib olinadigan boj; bojni qaytarish.
DRAWEE	
трассат; должник по тратте.	trassat; tratta bo'yicha qarzdor.
DRAWER	

трассант, векселедержатель, чекодатель.	trassant, veksel egasi, chek beruvchi.
DRAWING	
1. выписка (тратты, чека); 2. снятие денег со счета; 3. выручка, прибыль; 4. тираж.	1.(trattlar, cheklar) yozib berish; 2. hisobdan pul echmoq; 3. tushgan pul, daromad, foyda; 4. adad.
DRAWLATCHES	
воры, грабители.	o'g'rilar, talonchilar.
DRIBBLET	
небольшая сумма.	katta bo'lmagan summa.
DRIFTWAY	
1. частная скотопрогонная дорога; 2. право прогона скота.	1. xususiy chorva haydab o'tiladigan yo'l; 2. chorva haydab o'tish huquqi.
DRINK-DRIVE	
управление автомобилем в состоянии алкогольного опьянения.	spirtli ichimlik ichgan holatda avtomobilni boshqarish.
DRIVE	
1. управление автомобилем; 2. управлять автомобилем; 3. компания (общественная); 4. движение; 5. тенденция; стремление.	1. avtomobilni boshqarish; 2. avtomobilni boshqarmoq; 3. kompaniya (ommaviy); 4. harakat; 5. tendentsiya; intilish.
DRIVER	
водитель, шофер; **~'s license** водительские права.	haydovchi, shofer; **~'s license** haydovchilik guvohnomasi.
DRIVING	
вождение, управление автотранспортным средством; **~ while intoxicated (DWI)** вождение автотранспортного средства в нетрезвом состоянии; **alcohol-impaired ~** управление автомобилем в состоянии алкогольного опьянения; **dangerous ~** управление автомобилем, создающее аварийную ситуацию;	avtotransport vositalarini haydash, boshqarish; **~ while intoxicated (DWI)** mast holatda avtotransport vositasini haydash; **alcohol-impaired ~** spirtli ichimlik ichgan holatda avtomobilni boshqarish; **dangerous ~** avto halokat keltirib chiqaradigan vaziyatda avtomobilni boshqarish;

drug-impaired ~ управление автомобилем в состоянии наркотического опьянения; **hit-and-run** ~ бегство водителя с места дорожно-транспортного происшествия.	**drug-impaired** ~ narkotik is'temol qilgan holatda avtomobilni boshqarish; **hit-and-run** ~ yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan joydan haydovchining qochishi.
DROIT	
1. юридическое право; прерогатива; 2. pl пошлины; ~ **moral** Европейская доктрина о «художественной целостности», дающая художнику право не допускать изменений в его произведениях без его на то разрешения.	1. yuridik huquq; alohida huquq; 2. pl bojlar; ~ **moral** rassom asarlariga uning ruxsatisiz o'zgartirish kiritishga ruxsat bermaslik huquqini beruvchi, "badiiy butunlik" haqida Evropa ta'limoti.
DROITURAL	
принадлежащий по праву, относящийся к праву.	huquqqa tegishli, huquqqa doir.
DROP	
1. прекращать, бросать; 2. увольнять, исключать; 3. падение, снижение; ~ **a right** отказаться от права; ~ **of prices** падение цен.	1.to'xtatmoq, tashlamoq; 2. bo'shatmoq, inkor etmoq; 3. tushish, pasayish; ~ **a right** huquqdan voz kechmoq; ~ **of prices** narxlarning tushishi.
DRUG	
1. лекарство; наркотик; 2. злоупотреблять наркотиками;	1.dori; narkotik modalari; 2. narkotik moddalarni suiiste'mol qilmoq;
~ **addict** наркоман; ~ **dependence** наркотическая зависимость.	~ **addict** narkoman; giyoxvand ~ **dependence** narkotik moddalarga bog'liq bo'lish.
DRUGGED	
лицо, находящееся в состоянии наркотической интоксикации.	narkotikdan zararlangan holatda bo'lgan shaxs.
DRUNKEN	
лицо, находящееся в состоянии опьянения; пьяный; ~ **brawl** пьяная ссора; ~ **driving** вождение автомобиля в нетрезвом виде; **homeless** ~ бездомный пьяница.	1. spirtli ichimlik ichgan holatda bo'lgan shaxs; mast; ~ **brawl** mast holatdagi janjal; ~ **driving** mast holatda avtomobil haydash; **homeless** ~ uysiz ichuvchi.

DRUNKENNESS	
1. опьянение; 2. пребывание в состоянии явного опьянения в общественном месте; 3. пьянство, алкоголизм.	1. mast bo'lish; 2. jamoat joylarda g'irt mast holatda bo'lish; 3. ichuvchilik, alkogolizm.
DRY	
формальный, номинальный; не налагающий обязанности, ответственности; не приносящий выгоды, преимущества; ~ **receivership** формальное попечительство.	rasmiy, nominal; majburiyat, javobgarlik yuklamaydigan; foyda, afzallik keltirmaydigan; ~ **receivership** rasmiy vasiylik.
DUAL CITIZENSHIP	
двойное гражданство.	ikki fuqarolik.
DUE	
1. сбор, налог, пошлина, взнос; 2. причитающийся, следуемый; 3. должный, надлежащий	1.yig'im, soliq, boj, badal; 2. tegishli bo'lgan; 3. kerak bo'lgan, lozim bo'lgan;
4. наступивший (о сроке); ~ **amount** причитающаяся сумма; ~ **course of law** соблюдение законности; ~ **date** срок платежа; **annual** ~ ежегодные налог, пошлина, взнос; **become/fall** ~ наступить (о сроке платежа); **in** ~ **time** своевременно, в срок; **past** ~ просроченный; **regular** ~ регулярно взимаемые налоги, пошлин, взносы.	4. etib kelish (muddat haqida); ~ **amount** tegishli summa; ~ **course of law** qonuniylikka amal qilish; ~ **date** to'lov muddati; **annual** ~yillik soliq, boj, badal; **become/fall** ~yetib kelmoq (to'lov haqida); **in** ~ **time** o'z vaqtida, muddatda; **past** ~ muddati o'tib ketgan; **regular** ~muntazam olinadigan soliqlar, bojlar, badallar.
DUE-BILL	
долговая расписка.	qarz tilxati.
DULY	
надлежаще, в надлежащем порядке; должным образом; в должное время.	tegishli, tegishli tartibda; kerakli shaklda; kerakli vaqtda.
DUMPING	
демпинг; ~ **prices** демпинговые цены.	demping; ~ **prices** demping narxlar.
DUN	
требование уплаты долга от злостного неплательщика.	qasddan qarz to'lamaydigan shaxsdan qarz to'lashni talab qilish.

DUPLICATE	
1. дубликат; второй экземпляр; 2. делать дубликат; 3. свидетельство о восстановлении несостоятельного должника в правах; 3. ломбардный билет.	1.dublikat; ikkinchi nusxa; 2. dublikat qilmoq; 3 imkon)iyat)siz qarzdor huquqlarini tiklash to'g'risida guvohnoma; 4. lombard bileti.
DUPLICITY	
соединение разных оснований иска в одном исковом требовании; соединение разных защитительных аргументов в одном пункте возражений по иску; соединение разных правонарушений в одном пункте обвинения.	bir da'vo talabida turli da'vo asoslarini qo'shilishi; da'vo bo'yicha e'tirozning bir punktida turli himoyalovchi ishonchli dalillarni qo'shilishi; ayblovning bir punktida turli huquqbuzarliklarni qo'shilishi.
DURATION	
период, срок действия (договора и т. п.); срок полномочий, легислатура;	
~ **of recommitment** срок, предоставленный для повторного рассмотрения.	~ **of recommitment** qayta ko'rib chiqish uchun berilgan muddat.
DURESS	
принуждение; ~ **of goods** незаконный арест имущества; **do smth. under** ~ делать что-либо по принуждению.	majbur qilish; ~ **of goods** mollarni g'ayriqonuniy hibsga olish; **do smth. under** ~majburiyat bo'yicha biror narsani qilmoq.
DURESSOR	
лицо, применяющее принуждение.	majbur qiluvchi shaxs.
DUTIABLE	
подлежащий обложению пошлиной, облагаемый пошлиной.	boj solishga tegishli, boj solinadigan.
DUTY	

1. обязанность; повинность; 2. пошлина, сбор; ~ **enjoined by law** обязанность, вмененная законом; **failure to perform a legal** ~ невыполнение правовой обязанности; ~ **for revenue** фискальная пошлина; ~ **free** беспошлинный; беспошлинно; ~ **of detraction** пошлина на перемещение полученного наследства из одного штата в другой (в США); ~ **paid** облагаемый пошлиной; **account** ~ налог на дарение на случай смерти; **contractual** ~ обязанность из договора, договорная обязанность; **course of** ~ исполнение служебных обязанностей; **custom** ~ таможенная пошлина; **death** ~ налог на наследство; **export** ~ экспортная пошлина; **entrance** ~ ввозная пошлина; **excise** ~ акциз, акцизный сбор; export ~ экспортная пошлина; **free of** ~ беспошлинно; **import** ~ импортная пошлина;	1.majburiyat; xarbiy majburiyat; 2. boj. yig'im; ~ **enjoined by law** qonun tomonidan zimmasiga yuklangan majburiyat; **failure to perform a legal** ~ huquqiy majburiyatni bajarmaslik; ~ **for revenue** xazina boji; ~ **free** bojsiz; ~ **of detraction** merosni bir shtatdan ikkinchisiga olib o'tish uchun boj (AQShda); ~ **paid** boj solinadigan; **account** ~ o'lim holatida hadya uchun soliq; **contractual** ~ shartnomadan kelib chiqadigan majburiyat, shartnomaviy majburiyat; **course of** ~ xizmat majburiyatlarini bajarish; **custom** ~bojxona boji; **death** ~meros uchun soliq; **export** ~ eksport boji; **entrance** ~chetdan keltiriladigan moldan olinadigan boj; **excise** ~aktsiz, aktsiz yig'imi; **free of** ~bojsiz; **import** ~import boji; **inheritance** ~meros solig'i;
inheritance ~ налог на наследство; **legal** ~ 1. обязанность, налагаемая правом; правовая обязанность; 2. договорная обязанность; **a stamp** ~ гербовый сбор; **statutory** ~ обязанность по закону; **succession** ~ налог на наследуемое недвижимое имущество.	**legal** ~ 1. huquqda belgilangan majburiyat, huquqiy majburiyat; 2 shartnomaviy majburiyat; **a stamp** ~gerb yig'imi; **statutory** ~ qonun bo'yicha majburiyat; **succession** ~ meros qilingan ko'chmas mulkka soliq.
DWELL	
проживать, обитать.	yashamoq, istiqomat qilmoq.
DWELLING	
жилище, местожительство.	turar-joy. yashash joyi.
DYSNOMY	
плохое законодательство.	yomon qonunchilik.

EARLES-PENNY	
задаток.	garov puli.
EARMARK	
1. помечать отличительным знаком; 2. индивидуализировать; 3. предназначать; бронировать; резервировать: 4. ассигновать.	1. ajralib turadigan belgi bilan belgilamoq; 2. yakkalamoq, individuallashtirmoq; 3. mo'ljallamoq; bron qilmoq; zahira qilmoq; 4. ajratmoq.
EARN	
1. зарабатывать, получать доход; 2. приносить доход; ~ **commission** получать комиссионные: ~ **reward** получать вознаграждение.	1. ishlab topmoq, daromad olmoq; 2. foyda keltirmoq; ~ **commission** yig'im olmoq; ~ **reward** mukofot olmoq.
EARNER	
лицо, получающее зарплату, кормилец.	maosh oluvchi shaxs, boquvchi.
EARNINGS	
доходы; прибыль; заработок; ~ **before interest and taxes** доходы без вычета налогов и процентов; ~ **report** отчет компании о прибылях и убытках; **net** ~ **after taxes** чистая прибыль после вычета налогов; **subsidiary** ~ дополнительные доходы.	daromadlar; foydalar; ish haqi; ~ **before interest and taxes** soliq va foizlar ushlab qolinmagan daromadlr;~ **report** kirim va chiqimlar to'g'risida kompaniya hisoboti; **net** ~ **after taxes** soliqlar ushlab qolingan keyingi sof foyda; **subsidiary** ~qo'shimcha daromadlar.
EASEMENT	
права из сервитута, сервитут; ~ **appurtenant** земельный сервитут; ~ **in gross** личный сервитут; ~ **of access** сервитут доступа; ~ **of convenience** сервитут в целях удобства; **affirmative** ~ разрешительный сервитут; **continuous** ~ длящийся сервитут; **discontinuous** ~ сервитут эпизодического пользования;	servitut huquqi, servitut; ~ **appurtenant** er servituti; ~ in gross shaxsiy servitut;~ **of access** kirish servituti; ~ **of convenience** qulaylik maqsadlarida servitut; **affirmative** ~ ruxsat beruvchi servitut; **continuous** ~ davom etuvchi servitut; **discontinuous** ~ kam ishlatildigan servitut;

exclusive ~ эксклюзивный сервитут; **negative** ~ запретительный сервитут; **reciprocal negative** ~ взаимный запретительный сервитут.	**exclusive** ~ maxsus servitut; **negative** ~ taqiqlovchi servitut; **reciprocal negative** ~ o'zaro taqiqlovchi servitut.
EAVESDROPPING	
подслушивание; **constitutional** ~ подслушивание, не нарушающее конституцию; **unconstitutional** ~ подслушивание, нарушающее конституцию.	yashirincha eshitish; **constitutional** ~ konstitutsiyani buzmay Yashirincha eshitish **unconstitutional** ~ konstitutsiyani buzib Yashirincha eshitish
ECONOMIC	
экономический: ~ **discrimination** экономическая дискриминация; ~ **duress** меры экономического принуждения; ~ **life** полезная и приносящая доход жизнь имущества; ~ **loss** убытки.	iqtisodiy; ~ **discrimination** iqtisodiy tahqirlash; ~ **duress** iqtisodiy majburlov choralari; ~ **life** hayotga foydali va daromad olib keladigan mulk; ~ **loss** zararlar.
ECONOMY	
1. экономика; 2. экономия, бережливость; **licit** ~ законная экономика; **shadow** ~ теневая экономика.	1. iqtisod(iyot); 2. ekonomiya, tejash, tejamkorlik; **licit** ~ qonuniy iqtisod(iyot); **shadow** ~ yashirin iqtisod(iyot).
EDICT	
эдикт, указ.	farmon, farmoyish.
EDITION	
издание: **copyright** ~ издание, защищенное авторским правом; **enlarged** ~ дополненное издание; **original** ~ первое издание; **seized** ~ конфискованное издание; **unauthorized** ~ издание, выпущенное без разрешения автора.	nashr; **copyright** ~ mualliflik huquqi tomonidan himoyalangan nashr; **enlarged** ~ qo'shimcha nashr; **original** ~ birinchi nashr; **seized** ~ musodara qilingan nashr; **unauthorized** ~ muallifning ruxsatisiz bosilgan etilgan nashr.
EDUCATION	
воспитание, образование; ~ **and qualification** образовательный ценз;	tarbiya, ta`lim; ~ **and qualification** ta'lim senzi, belgilangan bilim darajasi;

equal ~ равное для всех образование; **judicial** ~ профессиональная подготовка судей; **legal** ~ 1. правовое воспитание; 2. юридическое образование; **secular** ~ гражданское (светское) образование. ~**educational – образовательный ~educational and vocational training-** образовательная и профессионально-техническая обучение	**equal** ~ hamma uchun teng ta'lim; **judicial** ~ sudyalarni kasbiy tayyorgarligi; **legal** ~ 1. huquqiy tarbiya; 2. yuridik ta'lim; **secular** ~ fuqarolik (dunyoviy) ta'limi. ~**educational** – ma`lumotga (bilim) xos~ **educational and vocational training-** bilim va xunar-texnika ta'limi bo`yicha ukitish
EDUCATIVE	
Воспитательный, воспитывающий~ **labour colony** – воспитательно – трудовая колония	Tarbiyaviy , tarbiyalovchi ~ **labour colony** – tarbiyaviy mehnat koloniyasi
EFFECT	
1. следствие, результат; 2. влияние; последствие; 3. эффект; действие; юридическое действие; сила; 4. содержание; существо; 5. осуществлять; совершать; заключать; производить; оформлять; 6. pl движимое имущество; ~ **a contract** заключать договор; ~ **a deal** заключать сделку; ~ **a marriage** заключать брак; ~ **a payment** производить платеж; ~ **a policy of insurance** оформлять страховой полис; **come/go into** ~ вступать в силу; **legal** ~ 1. правовые последствия; 2. юридическая сила; **movable/portable ~s** движимое имущество; **personal ~s** личное имущество; **retroactive/ retrospective** ~ обратная сила.	1. oqibat, natija; 2. ta'sir; oqibat, iz; 3. effekt; harakat; yuridik harakat; kuch; 4. mazmun, ma'no; mohiyat; 5. amalga oshirmoq; sodir qilmoq; tuzmoq; ishlab chiqarmoq; rasmiylashtirmoq; 6. pl ko`char mulk; ~**a contract** shartnoma tuzmoq; ~ **a deal** bitim tuzmoq; ~ **a marriage** nikoh tuzmoq; ~ **a payment** to`lovni amalga oshirmoq;~ **a policy of insurance** sug`urta polisini rasmiylashtirmoq; **come/go into** ~ kuchga kirmoq; **legal** ~ 1.huquqiy oqibatlar; 2. yuridik kuch; **movable/ portable ~s** ko`char mulk; **personal ~s** shaxsiy mulk; **retroactive/ retrospective** ~ teskari kuch.

EFFECTIVE	
1. действенный, эффективный; 2. действующий, имеющий силу; **become** ~ вступать в силу.	1.amaldagi, samarali; 2. amaldagi, kuchga ega; **become** ~ kuchga kirmoq.
EFFECTIVENESS	
1. эффективность; действенность; 2. вступление в силу.	1. samaradorlik; ta'sirchanlik; 2. kuchga kirishi.
EFFECTUAL	
действенный; действительный; действующий; имеющий (законную) силу.	amaldagi; haqiqiy; amal qiladigan; (qonuniy) kuchga ega.
EFFICACIOUS	
1. действующий, имеющий силу; 2. эффективный; действенный; ~ **law** действующий закон.	amaldagi, kuchga ega; 2. samarali; ta'sir ko'rsatadigan; ~ **law** amaldagi qonun.
EFFLUX(ION)	
1. истечение (срока); 2. прекращение с истечением срока.	1.(muddatning) tugashi; 2. muddat tugashi bilan to'xtatish.
EGRESS	
право выхода; выход.	chiqish huquqi; chiqish.
EJECT	
изгонять; лишать владения; выселять.	haydamoq; egalikdan maxrum qilmoq; ko'chirmoq.
EJECTION	
изгнание; лишение владения; выселение; насильственное удаление.	haydash; egalikdan maxrim qilish; ko'chirish; majburiy yo'q qilish.
EJECTMENT	
1. изъятие недвижимости (по суду); 2. выселение; 3. судебное дело о возвращении земель; иск о восстановлении владения недвижимостью; **action of** ~ иск о восстановлении нарушенного владения недвижимостью; **justice** ~ законное изъятие.	1. (sud tomonidan) ko'chmas mulk musodarasi; 2. ko'chirish; 3. erlarni qaytarish to'g'risida sud ishi; ko'chmas mulk egaligini tiklash to'g'risida da'vo; **action of** ~ buzilgan ko'chmas mulk egaligini tiklash to'g'risida da'vo; **justice** ~ qonuniy musodara.

EJECTOR	
лицо, нарушающее право владения недвижимостью; **casual** ~ ответчик по иску о восстановлении владения недвижимостью.	ko'chmas mulk egalik huquqini buzuvchi shaxs; **casual** ~ ko'chmas mulk egaligini tiklash to'g'risida da'vo bo'yicha javobgar.
ELECT	
1. избирать; выбирать (голосованием); 2. избранный (до вступления в должность); 3. решать; 4. предпочитать.	1.saylamoq; (ovoz berish bilan) tanlamoq; 2. (lavozimga kirishgungacha) saylangan; 3. qaror qilmoq; 4. afzal ko'rmoq.
ELECTEE	
избранный, выбранный (голосованием).	saylangan; (ovoz berish bilan) tanlangan.
ELECTION	
1. выбор; 2. выборы; 3. избрание; ~ **deposit** избирательный залог; ~ **of remedies** выбор средства защиты; ~ **returns** результаты выборов; **call** ~ об'явить выборы, проводить предвыборную кампанию; **carry** ~ проходить на выборах, получать большинство голосов; **contested/ disputed** ~ 1. выборы, правильность которых оспаривается; 2. выборы, на которых происходит борьба между кандидатами; **general** ~ всеобщие выборы; **hold** ~ проводить выборы; **occasional** ~s дополнительные выборы (в связи с освобождением вакансий); **recall** ~ выборы, при которых голосующие могут отстранять от должности должностное лицо; **regular** ~ очередные выборы. **by** - ~дополнительные выборы **primary** ~ предварительные выборы ~ **district-** избирательный округ ~ **law** – избирательный закон~ **qualification** – избирательный ценз.	1. tanlov/saylov; 2. saylovlar; 3. saylov; ~ **deposit** saylov garovi; ~ **of remedies** himoya vositasi tanlovi; ~ **returns** saylovlar natijasi; **call** ~saylovlar e'lon qilmoq, saylov oldi kompaniyasi o'tkazmoq; **carry** ~ saylovlarda yutib chiqmoq, ko'p miqdorda ovoz olmoq; **contested/ disputed** ~ 1. adolatlt talashilinadigan saylovlar; 2. nomzodlar o'rtasida kurash o'tkaziladigan saylovlar; **general** ~ umumxalq saylovi; **hold** ~ saylov o'tkazmoq; **occasional** ~s qo'shimcha saylovlar (vakantsiyalardan ozod qilish bilan bog'liq); **recall** ~ saylovchilar mansabdor shaxsni lavozimidan chetlatishi mumkin bo'lgan saylovlar; **regular** ~ navbatdagi saylovlar. **by-** ~ kushimcha saylovlar **primary** ~ dastlabki saylovlar~ **district-** saylov okrugi ~ **law** – saylov xakidagi qonun~ **qualification** – saylovlar tartib

~ **register** – список избирателей ~ **right** – избирательные права~ **system**- избирательная система	- qoidasi ~ **register** – saylovchilar ro'yxati~ **right** – saylov huquqlari~ **system**- saylov tizimi
ELECTIONEER	
проводить предвыборную кампанию.	saylov oldi kompaniyasini o'tkazmoq.
ELECTIONEERING	
предвыборная кампания.	saylov oldi kompaniyasi.
ELECTIVE	
1. выборный; избирательный; 2. имеющий избирательные права; ~ **franchise** избирательное право; ~ **office** выборная должность.	1.saylovga oid; saylov; 2. saylov huquqiga ega; ~ **franchise** saylov huquqi; ~ **office** saylov lavozimi.
ELECTOR	
1. избиратель; 2. выборщик, член коллегии выборщиков (президента и вице-президента США); 3. лицо, осуществляющее право выбора; **bound/committed** ~ амер. выборщик, связанный обязанностью голосовать за определенного кандидата; **qualified** ~ лицо, имеющее право голоса.	1. saylovchi; 2. (AQShda prezident va vitse-prezidentning) saylovchi, saylovchilar kollegiyasi a'zosi; 3. saylov huquqini amalga oshiruvchi shaxs; **bound/committed** ~ amer. belgilangan nomzod uchun ovoz berish majburiyati bilan aloqador saylovchi; **qualified** ~ saylov huquqiga ega shaxs.
ELECTORAL	
избирательный.	saylovga oid; saylov.
ELECTORATE	
электорат; избирательный корпус.	elektorat; saylov korpusi.
ELECTROCUTE	
Казнить на электрическом стуле	Elektr stulda katl etmok
ELECTROCUTION	
Казнь на электрическом стуле	Elektr stulda ijro etiladigan katl
ELECTORSHIP	
статус избирателя/выборщика.	saylovchining maqomi.
ELEEMOSYNARY	
благотворительный.	xayrli.
ELEGIT	
лат. судебный приказ о передаче истцу имущества ответчика в погашение долга.	lot. qarzni qoplash maqsadida qarzdor mulkini da'vogarga berish to'g'risida sud buyrug'i.

ELEMENT	
1. элемент; 2. pl стихия, непреодолимая сила, форс-мажор; ~ **of introduction** коллизионная привязка; **essential** ~ существенный элемент; реквизит.	1. element; 2. pl ofat, engib bo'lmas kuch, fors-major; ~ **of introduction** kollizion bog'liqlik; **essential** ~ mavjud element; rekvizit.
ELEVATION	
повышение в ранге, должности.	ranga, lavozimga ko'tarilish.
ELIGIBILITY	
1. обладание правом (в силу удовлетворения соответствующим установленным требованиям); 2. право на избрание; пассивное избирательное право; 3. право на занятие должности; **definite** ~ обладание определенным, конкретным правом; **limited** ~ обладание ограниченным правом.	1. (o'rnatilgan talablarga javob beradigan kuchdagi) huquqqa egalik; 2. saylov huquqi; passiv saylov huquqi; 3. lavozim egallash huquqi; **definite** ~ aniq, belgilangan huquqqa egalik; **limited** ~cheklangan huquqqa egalik.
ELIGIBLE	
1. имеющий право (в силу удовлетворения соответствующим установленным требованиям); отвечающий требованиям; 2. имеющий право на занятие должности; 3. имеющий право на избрание, обладающий пассивным избирательным правом; **constitutionally** ~ имеющий право по конституции (как отвечающий требованиям, установленным конституцией); **legally** ~ имеющий юридическое право, имеющий право по закону (как отвечающий требованиям, установленным законом). ~ **for parole** – подлежащий освобождению под честное слово	1. (o'rnatilgan talablarga javob beradigan kuchdagi) huquqqa ega; talablarga javob beradigan; 2. lavozim egallash huquqiga ega; 3. saylov huquqiga ega; passiv saylov huquqiga ega; **constitutionally** ~ konstitutsiya bo'yicha huquqqa ega (o'rnatilgan konstitutsiya talablariga javob beradigan); **legally** ~ yuridik huquqqa ega, qonun bo'yicha huquqqa ega (o'rnatilgan qonunlar talablariga javob beradigan). ~ **for parole** – chin suzga ishonish asosida ozodlikka chikarish

ELISOR	
должностное лицо, назначенное для подбора присяжных для слушания данного дела.	belgilangan ishni ko'rib chiqish uchun hakamlarni tanlashga tayinlangan mansabdor shaxs.
ELOIGN	
1. изъять (имущество) из юрисдикции суда; 2. изъятие имущества из юрисдикции суда; 3. изъять, вывезти, вынести (имущество, которому грозит бедствие); 4. завладение движимого имущества по праву удержания.	1. sud yurisdiktsiyasidan (mulkni) musodara qilmoq; 2. sud yurisdiktsiyasidan mulkni musodara qilish; 3. musodara qilmoq, ozod qilmoq, chiqarib tashlamoq (balo keltiradigan mulk); 4. ko'char mulkni ushlab turish huquqi bo'yicha egalik qilish.
ELOIGNER	
1. лицо, которое из'яло имущество из юрисдикции суда; 2. лицо, завладевшее движимым имуществом по праву удержания; 3. лицо, заявившее возражение против судебного приказа о виндикации.	1. sud yurisdiktsiyasidan mulkni musodara qilgan shaxs; 2. ko'char mulkni ushlab turish huquqi bo'yicha egalik qiluvchi shaxs; 3. vindikatsiya to'g'risida sud buyrug'iga qarshi e'tiroz qiluvchi shaxs.
ELOPE	
Сбежать , скрыться	Kochmok, goyib bo'lmok, yashirinmok
ELOPEMENT	
побег (от супруга).	(erdan) qochish.
ELUDE	
уклоняться, ускользать; ~ **a treaty** уклоняться от соблюдения условий договора. ~**pursuit**- ускользнуть от преследования	bosh tortmoq, bo'yin tovlamoq; ~ **a treaty** shartnoma shartlariga rioya qilishdan bosh tortmoq. ~**pursuit**- ta'kibdan kochmok
EMANCIPATE	
1. эмансипировать; 2. объявлять совершеннолетним, освобождать от родительской опеки.	1.ozod qilmoq; 2. voyaga etgan deb e'lon qilmoq, ota-onalik vasiyligidan ozod qilmoq.
EMANCIPATED	
совершеннолетний.	voyaga etganlik.
EMBARGO	
1. запрещение; запрет, эмбарго; 2. накладывать эмбарго;	1. taqiqlov; taqiq, embargo; 2. embargo qo'ymoq;

absolute ~ безусловный запрет; безусловное эмбарго; полное эмбарго; **lift the** ~ снимать эмбарго. **Lay on an** ~ накладывать эмбарго	**absolute** ~shartsiz taqiq; shartsiz embargo; to'liq embargo; **lift the** ~ embargoni olib tashlamoq. **Lay on an** ~ (molni olib chikib ketishni) ta'qiqlamoq
EMBASSADOR	
посол.	elchi.
EMBASSAGE	
1. должность посла; 2. состав посольства.	1. elchi lavozimi; 2. elchixona tarkibi.
EMBASSY	
1. посольство; 2. посольские полномочия.	1.elchixona; 2. elchilik vakolati.
EMBEZZLE	
присваивать, растрачивать (чужое имущество).	(begona mulkni) o'zlashtirmoq, sarflamoq.
EMBEZZLED	
1. присвоенное, растраченное (имущество); 2. потерпевший от присвоения/растраты имущества.	1. (mulkni) o'zlashtirish, sarflash; 2. mulkni sarflash/o'zlashtirishdan jabr ko'rish.
EMBEZZLEMENT	
присвоение имущества; растрата.	mulkni o'zlashtirish; kamomad.
EMBEZZLER	
растратчик; лицо, присвоившее/ растратившее имущество.	kamomad qiluvchi; mulkni sarflovchi/ o'zlashtiruvchi shaxs.
EMBODIMENT	
1. воплощение; 2. обединение; слияние, интеграция; 3. включение.	1. mujassamlashtirish; 2. birlashma; qo'yilish, integratsiya (turli mamlakatlar iqtisodiy hayotining yagona iqtisodiy siyosat asosida o'zaro bog'langan holda rivojlanish formasi); 3. qamroviga olish.
EMBODY	
1. воплощать в жизнь; 2. включать в себя; содержать; 3. об'единяться; сливаться; ~ **a treaty in law** инкорпорировать международный договор в национальное законодательство.	1.hayotga tatbiq qilmoq; 2. o'z ichiga olmoq; tarkibiga olmoq; 3. birlashish; qo'shilish; ~ **a treaty in law** xalqaro shartnomani milliy qonunchilikka tatbiq qilmoq.

EMBRACE	
1. пытаться повлиять на присяжных/судей незаконными средствами; 2. охватывать; заключать в себе; содержать.	1.noqonuniy vositlar orqali sudya/ hakamlarni o'zlashtirib olishga urinmoq; 2. qamrab olmoq; o'z ichiga olmoq; tarkibiga olmoq.
EMBRACER	
лицо, виновное в попытке повлиять незаконными средствами на судью/ присяжных с целью понудить их к вынесению решения/вердикта в пользу стороны по делу.	sudya/hakamlarni ish bo'yicha tomonlar foydasiga qaror/verdikt chiqarish maqsadida majburlab noqonuniy vositlar orqali ularni o'zlashtirib olishga urinishda ayblanuvchi shaxs.
EMBRACERY	
1. подкуп присяжных заседателей; 2. незаконное давление на судью/ присяжных с целью понудить их к вынесению решения/вердикта в пользу стороны по делу.	1. hakamlar xayatini pora berib o'z tomoniga og'dirib olish; 2. ish bo'yicha tomonlar foydasiga qaror/ verdikt chiqarishga majburlash maqsadida sudya/hakamlarga noqonuniy bosim.
EMERGENCY	
1. непредвиденный случай; 2. чрезвычайное обстоятельство; ~ **laws/legislation** чрезвычайное законодательство; ~ **measures** чрезвычайные меры; ~ **powers** чрезвычайные полномочия; **the state of** ~ чрезвычайное положение.	1. ko'zda tutilmagan voqea; 2. favqulotda vaziyat; ~ **laws/legislation** favqulotdagi qonunchilik; ~ **measures** favqulotdagi choralar; ~ **powers** favqulotdagi vakolat; **the state of** ~ favqulotda holat.
EMIGRANT	
1. эмигрант; 2. эмигрирующий; эмигрантский.	1.emigrant, muhojir; 2. chet mamlakatga ko'chib ketuvchi; chet mamlakatga ko'chib ketishga oid.
EMIGRATE	
эмигрировать.	chet mamlakatga ko'chib ketmoq.
EMIGRATION	
эмиграция.	emigratsiya, chet mamlakatga ko'chib ketish.

EMISSARY	
эмиссар; агент.	emissar (maxfiy siyosiy topshiriq bilan chet mamlakatga yuboriladigan kishi); josus. .
EMOLUMENT	
1. доход, заработок, жалование; 2. выгода, польза.	1. daromad, ish haqi, mukofot; 2. foyda.
EMPANNEL	
составлять список присяжных.	hakamlar ro'yhatini tuzmoq.
EMPARLANCE	
срок для представления объяснений по иску.	da'vo bo'yicha tushuntirish berish uchun muddat.
EMPHYTEUSIS	
эмфитевзис; долгосрочная / бессрочная аренда земли.	emfitevzis; uzoq muddatli/muddatsiz er ijarasi.
EMPHYTEUTIC	
долгосрочно арендованный/ сданный в долгосрочную аренду (о земле).	uzoq muddatli ijara/uzoq muddatli ijaraga berilgan (er haqida).
EMPLOY	
1. использовать; 2. предоставлять работу по найму; 3. работа по найму.	1.foydalanmoq; 2. yollanma bo'yicha ish taqdim qilmoq; 3. yollanma bo'yicha ish.
EMPLOYEE	
служащий; работник по найму; **called-in** ~ нанятый на службу; нанятый на работу; **consular** ~ консульский служащий; **defendant** ~ служащий/работник, привлеченный к суду в качестве ответчика; **plaintiff** ~ служащий/ работник, выступающий по делу в качестве истца; **tortious** ~ служащий или работник, совершающий гражданские правонарушения по месту службы/ работы.	xizmatchi: yollanma bo'yicha ishchi; **called-in** ~ xizmatga yollangan: ishga yollangan; consular ~ konsullik xizmatchisi; **defendant** ~ sudga javobgar **sifatida** tortilgan xizmatchi/ ishchi; **plaintiff** ~ ish bo'yicha da'vogar sifatida chiquvchi xizmatchi/ ishchi; **tortious** ~ xizmat/ish joyi bo'yicha fuqarolik huquqbuzarligi sodir qilgan xizmatchi yoki ishchi.

EMPLOYER	
наниматель; работодатель; **nonunion** ~ наниматель, нанимающий служащих/работников без участия профсоюза; **union** ~ наниматель, нанимающий служащих/работников с участием профсоюза.	yollovchi; ish beruvchi; **nonunion** ~ kasaba uyushmasi ishtirokisiz xizmatchi/ishchilarni yollaydigan yollovchi; **union** ~ kasaba uyushmasi ishtirokida xizmatchi/ishchilarni yollaydigan yollovchi
EMPLOYMENT	
1. использование; 2. личный наем; 3. работа; занятость; ~ **agreement** договор личного найма, трудовое соглашение; ~ **sheet** послужной список; **common** ~ принцип «совместной службы» (отсутствие у служащего права иска из правонарушения к хозяину, если ущерб причинен по вине другого служащего); **equal** ~ принцип равного найма; **forfeit one's** ~ быть отстраненным от службы; **occasional** ~ временная работа.	1. foydalanish; 2. shaxsiy yollanma; 3. ish; bandlik; ~ **agreement** shaxsiy yollanma shartnomasi, mehnat bitimi; ~ **sheet** xizmat ro'yhati; **common** ~ «qo'shma xizmatlar» tamoyili (agar boshqa xizmatchining aybi bilan zarar etkazilsa xo'jayinga nisbatan huquqbuzarlik); **equal** ~ teng yollanma tamoyili; **forfeit one's** ~ xizmatdan chetlashtirilganlik; **occasional** ~ vaqtinchalik ish.
EMPOWER	
уполномочивать; предоставлять право; ~ **explicitly/expressly** прямо уполномочивать, управомочивать; ~ **implicitly** уполномочивать, управомочивать конклюдентными действиями.	vakolat bermoq; huquq taqdim qilmoq; ~ **explicitly/expressly** to'g'ri vakolat bermoq, huquq bermoq; ~ **implicitly** konklyudent harakatlarga vakolat bermoq, huquq bermoq.
EMPTIO BONORUM	
лат. публичная продажа имущества должника.	lot. qarzdorning mulkini oshkora sotuvi.
ENABLE	
1. давать право; давать возможность; 2. давать юридический статус, узаконивать.	1. huquq bermoq; imkon(iyat) bermoq; 2. yuridik maqom bermoq, qonuniylashtirmoq.
ENABLING	
уполномочивающий, облекающий правом; дающий возможность.	vakolatli, huquqiy tusdagi; imkon(iyat) beruvchi.

ENACT	
инаугурация; введение в должность, торжественное вступление в должность; ~ **day** день вступления в должность нового президента США.	inauguratsiya; mansab (vakolatlari) ga kirishish, tantanali ravishda mansabga kirishish; ~ **day** AQSh yangi prezidentining o'z xizmat majburiyatinini bajarishga kirishish kuni.
INBRED	
рожденный от родителей, состоящих в кровном родстве между собой.	ota-onadan tug'ilgan, o'zaro qon qarindoshlikda bo'lgan.
INCAPABILITY	
1. неправоспособность; недееспособность; 2. нетрудоспособность.	1. huquqqa layoqatsizlik; yuridik layoqatsizlik; 2. mehnatga layoqatsizlik.
INCAPACITATE	
ограничивать в право-и/или дееспособности; поражать в правах.	huquqda va/yoki yuridik layoqatlilikda cheklamoq, huquqlarga zarar yetkazish.
INCAPACITY	
1. ограничение право - и/или дееспособности; 2. неспособность; непригодность (к какой-либо работе);	1. huquqda va/yoki yuridik layoqatlilikda cheklov; 2. layoqatsizlik; (qaysidir mehnatga) yaroqsizlik;

civil ~ гражданская неправоспособность; гражданская недееспособность; ограничение гражданской право- и/или дееспособности; поражение в гражданских правах; **legal** ~ ограниченная законом право- и/или дееспособность; **total** ~ полная недееспособность.	**civil** ~ fuqarolik huquqiy layoqatsizlik; fuqarolik yuridik layoqatsizlik; fuqarolik huquqiy va/yoki yuridik layoqatlilikda cheklov; **legal** ~ qonuniy huquqiy va/yoki imkon(iyat)da cheklanganlik; **total** ~ mutlaq imkon(iyat)sizlik.
INCARCERATE	
заключить в тюрьму.	turmaga tashlamoq.
INCARCERATE	
заключение в тюрьму.	turmaga tashlash.
INCENDIARISM	
поджог.	qasddan uyushtirilgan yong'in.
INCENDIARY	
1. поджигатель; 2. поджигающий; 3. подстрекатель; ~ **fire** поджог.	1. qasddan yong'in uyushtiruvchi; 2. o't qo'yuvchi; 3. zalolatchi; ~ **fire** qasddan o't qo'yish.
INCENTIVE	
побудительный, стимулирующий; ~ **pay plans** система оплаты труда, при которой зарплата растет по мере роста производительности выше установленного уровня; ~ **payment** прогрессивная оплата труда; ~ **stock option** право на покупку акций компании по оговоренной цене без уплаты налогов, предоставляемое служащему на определенный срок; ~ **wage** прогрессивная система заработной платы	undovchi, qiziqtiruvchi; ~ **pay plans** yuqori belgilangan darajada ishlab chiqarish ko'rsatkichiga bog'liq holda o'sib boruvchi maosh bo'yicha mehnatga haq to'lash tizimi; ~ **payment** mehnatga bo'lgan progressiv to'lov; ~ **stock option** kompaniya aksiyalarini soliqlar to'lamay kelishilgan bahoda, belgilangan muddatga xizmatchiga taqdim etiladigan sotib olish huquqi, ega bo'lganlar uchun ma'lum vaqt berilishi; ~ **wage** progressiv maosh to'lash tizimi.
INCEST	
инцест, кровосмешение.	intsest, yaqin qarindoshlarning jinsiy aloqada bo'lishi, qon quyilishi.

INCHOATE	
незаконченный, незавершенный, не оформленный окончательно.	tugallanmagan, oxiriga etkazilmagan, oxirigacha rasmiylashtirilmagan.
INCIDENT	
1. инцидент, случай, происшествие; 2. свойственный, присущий, связанный; 3. случайный; 4. обязанности/привилегии, связанные с пребыванием на каком-либо посту и т. п.	1. mojaro, voqea, hodisa; 2. xoslik, bog'liq, aloqador; 3. tasodifiy; 4. qandaydir lavozimda va sh. k. da bo'ltsh bilan bog'liq majburiyat/ imtiyoz.
INCIDENT OFFENCE	
преступление в результате подстрекательства	birovning ta'siri ostida sodir etilgan jinoyat, zalolat qilish ta'siri ostida sodir etilgan jinoyat.
INCIDENTAL	
1. свойственный, вытекающий, присущий; связанный; 2. побочный, случайный; ~ **powers** присущая компетенция.	1. xos bo'lgan, kelib chiquvchi, o'ziga xos; bog'liq; 2. qo'shimcha, tasodifiy; ~ **powers** o'ziga xos vakolat.
INCITE	
подстрекать	(jinoyat sodir etishga) undamoq, zalolat qilmoq.
INCITED PERSON	
Лицо, которое склонили к совершению преступления.	(jinoyat sodir etishga) undalgan, zalolat qilingan, ilohmlantirilgan shaxs.
INCITEMENT	
подстрекательство	jinoyat sodir qilishga zalolat qilish.
INCLOSE	
окружать, огораживать, закрывать.	o'rab olmoq, atrofini o'rab olmoq, yopmoq.
INCLUDE	
включать, содержать, охватывать.	o'z ichiga olmoq, tarkib topmoq, qamrab olmoq.

INCOME	
доход; прибыль; ~ **accounting** исчисление дохода; учет доходов; ~ **averaging** усредненный доход; ~ **data** данные о доходах; ~ **exclusions** доходы, не подлежащие обложению налогом; ~ **property** имущество, приносящее доход; ~ **retention** удержание из дохода; ~ **statement** отчет о доходах компании; ~ **tax** подоходный налог; ~ **tax defeciency** недоплата подоходного налога; ~ **tax return** отчет о налогах налогоплательщика; **accrued** ~ начисленный доход; **actual** ~ фактический доход; **aggregate** ~ совокупный доход; **adjusted gross** ~ валовой доход за вычетом разрешенных законом удержаний; **disposable** ~ чистый доход после уплаты налогов; **draw** ~ получать доход; **extra** ~ дополнительный доход; **favorable ratio of** ~ **to expenditure** превышение доходов над расходами; **fixed** ~ фиксированный доход; **gross** ~ валовой доход; **imputed** ~ расчетная стоимость имущества/ дохода; **lawful/legal/legitimate** ~ доход законного происхождения, законный доход; **net (business)** ~ чистая прибыль; **over-all level of** ~ общий уровень доходов; **personal** ~ личный доход; **unearned** ~ нетрудовой, непроизводственный доход; **taxable** ~ облагаемый налогом доход; **taxed** ~ доход, обложенный налогом; **unlawful** ~ доход незаконного происхождения, незаконный доход.	daromad; foyda; ~ **accounting** daromadni hisoblash; daromadlar hisobga olish; ~ **averaging** o'rtacha daromad; ~ **data** daromad haqida ma'lumot;~ **exclusions** soliq solinmaydigan daromad; ~ **property** daromad keltiruvchi mol-mulk; ~ **retention** daromaddan ushlab qolish; ~ **statement** kompaniya daromadlari haqidagi hisobot; ~ **tax** daromad solig'i;~ **tax defeciency** daromad solig'ii to'lamaslik;~ **tax return** soliq to'lovchining soliqlari haqida hisobot; **accrued** ~hisoblangan daromad; **actual** ~faktik daromad; **aggregate** ~birlashtirilgan daromad; **adjusted gross** ~qonun tomonidan ruxsat etilgan ushlab qolinishdan keyingi yalpi daromad; **disposable** ~soliqlar to'langandan keyingi sof daromad; **draw** ~foyda olmoq; **extra** ~qo'shimcha daromad; **favorable ratio of** ~ **to expenditure** daromadlarning harajatlardan oshib ketishi; **fixed** ~ qayd qilingan daromad;**gross** ~yalpi daromad; **imputed** ~ mulk/daromadning hisoblangan qiymati; **lawful/legal/ legitimate** ~ qonuniy yo'l bilan topilgan daromad; qonuniy daromad; **net (business)** ~sof foyda; **over-all level of** ~ daromadning umumiy darajasi; **personal** ~shaxsiy daromad; **unearned** ~ mehnatsiz topilgan, ishlab topilmagan daromad; **taxable** ~soliq solinadigan daromad; **taxed** ~soliq solingan daromad; **unlawful** ~noqonuniy yo'l bilan topilgan, noqonuniy daromad.

INCOMING	
1. входящий (о документах, почте и т. д.); 2. вступающий (во владение и т. п.).	1.kiruvchi (hujjat, pochta va sh. k.) 2. qo'lga kiritish (egalik va sh. k.).
INCOMPATIBILITY	
несовместимость; ~ **of duties** несовместимость должностей.	bir biriga mos kelmaslik; ~ **of duties** lavozimlarning bir biriga mos kelmasligi.
INCOMPETENCE/ INCOMPETENCY	
некомпетентность; отсутствие права, неспособность; неправоспособность; недееспособность; ~ **through interest** недопустимость свидетеля ввиду его заинтересованности в деле; ~ **of witness** отсутствие у лица права выступать в качестве свидетеля.	layoqatsizlik; huquqning mavjud emasligi, imkon(iyat)sizlik; huquqiy layoqatsizlik; yuridik layoqatsizlik; ~ **through interest** guvohning ishga manfatdorligiga yo'l ko'yilmaslik; ~ **of witness** shaxsda guvoh sifatida chiqish huquqining mavjud emasligi.
INCOMPETENT	
некомпетентный; не имеющий права; неправоспособный; **temporarily** ~ временно неправоспособный; временно недееспособный; ~ **evidence** недопустимое доказательство не принимаемое судом; ~ **witness лицо не способное быть свидетелем.**	vakolatsiz, huquqga ega bo'lmagan; huquqiy layoqatsiz; **temporarily** ~ vaqtincha huquqiy layoqatsiz, vaqtincha yuridik layoqatsiz; ~ **evidence** noo'rin isbot, noloyiq dalil; ~ **witness** noqobil guvoh, noloyiq guvoh.
INCONCLUSIVE	
неубедительный, неокончательный, недостаточный; ~ **presumption** опровержимая презумпция.	yakuniga ktkazilmagan, ishonib bo'lmaydigan, etarlicha isbotlanmagan; ~ **presumption** rad etsa bo'ladigan aybsizlik holati.
INCONSISTENCE	
1. непоследовательность; 2. необоснованность; 3. несогласованность; несовместимость.	1. izchil emaslik; 2. asoslanmaganlik; 3. norozilik, bir-biriga to'g'ri kelmaslik.

INCONSISTENT	
1. непоследовательный; 2. необоснованный; несостоятельный; 3. несогласующийся, несовместимый; противоречащий.	1. izchil emas; 2. asoslanmagan; imkon(iyat)siz; 3. norozi, bir-biriga to'g'ri kelmaydigan; zid bo'lgan.
INCONTESTABLE	
неоспоримый, бесспорный.	ishonchsiz bo'lgan; da'volab bo'lmaydigan.
INCORPORATE	
1. инкорпорировать; включать; 2. предоставлять права юридического лица; предоставлять статус корпорации; 3. зарегистрированный в качестве юридического лица; ~ **in the record** внести в протокол.	1. qamrab olmoq; ichiga olmoq; 2. yuridik shaxs huquqini bermoq; korparatsiya maqomini bermoq; 3. yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazmoq; ~ **in the record** bayonnomaga kiritmoq.
INCORPORATED	
обладающий правами юридического лица; являющийся корпорацией	yuridik shaxs huquqiga ega; korporatsiya bo'lgan.
INCORPORATION	
1. инкорпорация; включение; 2. предоставление прав юридического лица, предоставление статуса корпорации; ~ **by reference** инкорпорация путем отсылки (без приведения текста инкорпорируемого документа); **actual** ~ текстуальная инкорпорация; **charter of** ~ грамота о присвоении статуса корпорации.	1. qamrab olish; ichiga olish; 2. yuridik shaxs huquqini berish; korparatsiya maqomini berish; ~ **by reference** havola yo'li bilan amaldagi qonunlarni o'zgarishsiz tizimga solib bir majmuaga to'plash (tizimlashtirilgan hujjat matnini havola qilmasdan); **actual** ~ matnli tizimlashtirish; **charter of** ~ korporatsiya maqomini o'zlashtirish yorlig'i.
INCORPORATOR	
учредитель.	ta'sischi, muassis.
INCORPOREAL	
нематериальный, невещественный; ~ **chattels** невещественное имущество (авторское, патентное право); ~ **rights** право на нематериальное имущество.	nomoddiy; noashyoviy; ~ **chattels** nomoddiy mulk (mualliflik, patent huquqi); ~ **rights** nomoddiy mulk huquqi.

INCORRECT	
1. неправильный; ненадлежащий; 2. противоречащий закону.	1.noto‘g‘ri; tegishli bo‘lmagan; 2. qonunga hilof.
INCORRUPT	
неподкупный.	sotib olinmaydigan.
INCORRUPTIBILITY	
неподкупность.	pulga sotilmaslik.
INCREASE	
увеличение, рост; **rate ~** повышение ставки.	orttirish, o‘sish; **rate ~** stavkalaraning oshishi.
INCREMENT	
надбавка; прирост; увеличени.	ustama; o‘sish; ortish.
INCRIMINATE	
вменять в вину, инкриминировать.	aybdor deb topmoq; ayb qo‘ymoq.
INCROACHMENT	
незаконное получение права владения другого лица.	Noqonuniy huquqni/boshqa shaxs egalligini olish.
INCULPATE	
обвинять; вменять в вину; инкриминировать.	Ayblamoq; aybdor deb topish; ayb qo‘ymoq.
INCULPATION	
обвинение, изобличение.	ayblash, fosh qilish.
INCULPATORY	
Обвинительный.	ayblov.
INCUMBENCY	
1. должность, пребывание в должности, должностные обязанности; 2. обязанность; 3. бенефиций.	1.lavozim, lavozimga kirish; 2. majburiyat; 3. benefitsiy.
INCUMBENT	
1. лежащий как обязанность; 2. должностное лицо; **~ of the mission** глава дипломатического представительства; **~ of the office** лицо, занимающее данную должность; **judicial ~** судья, вступивший в должность.	1.majburiyat sifatida yotgan; 2. mansabdor shaxs; **~ of the mission** diplomatik vakolatxona boshlig‘i; **~ of the office** shu mansabni egallab turgan shaxs; **judicial ~** mansabga o‘tiruvchi sudya.
INCUMBER	
обременять (имущество).	malollik keltirmoq (mulk).

INCTUNBRANCE	
1. помеха, препятствие; 2. обременение (имущества).	1. xalaqit, to'sqinlik; 2. malollik keltirish (mulk).
INCUMBRANCER	
лицо, в пользу которого существует обременение; залогодержатель.	to'sqinlikka ega bo'lgan shaxs; garov egasi.
INCUR	
нести (ответственность, расходы, ущерб и т. д.); принимать на себя; подвергаться; ~ **disqualification** 1. подвергнуться дисквалификации; 2. подвергнуться лишению права, правопоражению; ~ **responsibility** принимать на себя ответственность; навлечь на себя ответственность, понести ответственность.	(javobgarlik, chiqim, zarar va h. k.) olib kelmoq; o'ziga olmoq; yo'liqtirmoq; ~ **disqualification** 1. mahrum etilishga olib bormoq; 2. huquqdan mahrum etilishga olib bormoq; huquqdan mahrum etish; ~ **responsibility** javobgarlikni o'ziga olmoq; o'ziga nisbatan javobgarlik olmoq; javobgarlik olmoq.
IN CURIA	
лат. в суде, в открытом судебном заседании.	lot. sudda, ochiq sud majlisida.
INDEBITATUS ASSUMPSIT	
лат. иск об убытках из неисполнения подразумеваемого обязательства.	lot. ko'zda tutilgan majburiyatni bajarmaganligi tufayli kelib chiqqan zararlar haqida da'vo.
INDEBTED	
должный, имеющий долг.	qarz bo'lgan, qarzi bor.
INDEBTEDNESS	
задолженность; сумма долга.	qarzdorlik; qarz summasi.
INDECENCY	
1. непристойный; 2. непристойное поведение.	1.ahloqsiz; 2. ahloqsiz hulq-atvor.
INDECENT	
непристойный, непотребный; ~ **assault** непристройное нападение; ~ **behavior** непристройное поведение; ~ **prints** порнографические снимки.	noma'qul, bema'ni; ~ **assault** noma'qbul xujum, uyatli harakat; ~ **behavior** bemani qiliq, nojo'ya harakat; ~ **prints** pornografik rasmlar.
INDEFEASIBLE	
неоспоримый; не подлежащий отмене, аннулированию; ~ **law** непреложный закон.	rad qilinmaydigan; rad qilishga tegishli bo'lmagan; ~ **law** qat'iy qonun.

INDEMNIFTE	
кредитор по договору гарантии.	shartnoma kafilligi bo'yicha kreditor.
INDEMNIFICATION	
возмещение вреда, ущерба; компенсация.	zarar, ziyonni qoplash; kompensatsiya.
INDEMNIFY	
1. гарантировать возмещение вреда, ущерба; 2. возмещать вред, убыток; компенсировать ущерб; 3. освобождать от наказания.	1.zarar, ziyon qoplanishini kafolatlamoq; 2. zarar, ziyonni qoplamoq; zararni kompensatsiya qilmoq; 3. jazodan ozod qilmoq.
INDEMNITEE	
кредитор по договору гарантии.	shartnoma kafilligi bo'yicha kreditor.
INDEMNITOR	
гарант, должник по договору гарантии.	shartnoma kafilligi bo'yicha qarzdor, kafil.
INDEMNITY	
1. гарантия возмещения вреда, ущерба, убытков; 2. возмещение вреда, ущерба, убытков; 3. возмещать убытки, компенсировать; 4. контрибуция, репарация; 5. освобождение от наказания, погашение ответственности; **~ against liability** страхование ответственности; заранее предусмотренное освобождение от материальной ответственности: **~ against loss** страхование вреда; **contract of ~** договор гарантии; **insurance ~** страховое вознаграждение; **pecuniary ~** денежное возмещение.	1. zarar, ziyon qoplanishini kafolati; 2. zarar, ziyon qoplanishini qoplash; 3. zararni qoplamoq, kompensatsiya qilmoq; 4. kontributsiya (1 urushda yengilgan davlat g'olib davlatga to'laydigan tovon; 2 urush vaqtida bosib olingan yer aholisidan olinadigan soliq), reparatsiya (urushda ko'rilgan zararlarni qoplash uchun yengilgan va urush chiqishiga sabab bo'lgan davlat tomonidan enggan davlatga to'lanadigan tovon); 5. jazodan, majburiyat qaytarishdan ozod qilish; **~ against liability** javobgarlikni sug'urtalash; oldindan ko'zda tutilgan moddiy javobgarlikdan ozod qilish; ~ against loss zararni sug'urtalash; **contract of ~** kafolat shartnomasi; **insurance ~** sug'urta mukofoti; **pecuniary ~** pul bilan qoplash.
INDENIZATION	
натурализация, предоставление прав гражданства, подданства.	naturalizatsiya, fuqarolikni berish.

INDENT	
1. индент: документ с отрывным дубликатом; 2. составлять документ с отрывным дубликатом; 3. договор за печатью; 3. отдавать в обучение.	1. indent; nusxasi yirtib olindigan hujjat; 2. yirtib olindgan nusxa bo'yicha hujjat tuzish; 3. nashr uchun shartnoma; 4. o'qishga bermoq.
INDENTURE	
1. документ с отрывным дубликатом; 2. договор за печатью; 3. договор об отдаче в ученичество; ~ **of apprenticeship** договор об отдаче в обучение, договор ученичества.	1.nusxasi yirtib olindigan hujjat; 2. nashr uchun shartnoma; 3. shogirdlikka berish haqida shartnoma; ~ **of apprenticeship** o'qishga berish haqida shartnoma, shogirdlik shartnomasi.
INDEPENDENCE	
независимость, самостоятельность.	mustaqillik, erkinlik.
INDEPENDENCY	
1. независимое государство; 2. независимость, самостоятельность.	1. mustaqil davlat; 2. mustaqillik, erkinlik.
INDEPENDENT	
1. независимый; самостоятельный; 2. выполняющий работу своими средствами.	1.mustaqil, erkin; 2. o'z vositalari bilan ish bajaruvchi.
INDETERMINATE	
неопределенный, неясный; ~ **sentence** неопределенный приговор.	noaniq xira; ~ **sentence** noaniq hukm.
INDEXING	
индексация (заработной платы и т. п.).	indeksatsiya (ish haqi va h. k.).
INDICIA OF TITLE	
документ, свидетельствующий о правовом титуле.	huquqiy maqomni tasdiqlovchi hujjat.
INDICT	
предъявлять обвинение.	ayb qo'ymoq.
INDICTABLE	
подлежащий судебному преследованию; ~ **offence** преступление, преследуемое по обвинительному акту.	javobgarlikka tortiladigan; ~ **offence** ayblov hukmi bilan ta'qib qilinadigan jinoyat.

INDICTEE	
обвиняемый на судебном процессе; ответчик.	sud protsessida ayblanuvchi; javobgar.
INDICTING	
уголовное преследование.	jinoiy ta'qib.
INDICTMENT	
обвинительный акт; **corporate** ~ обвинительный акт против корпорации.	ayblov akti; **corporate** ~ korporatsiyaga qarshi ayblov dalolatnomasi.
INDIGENCE	
статус бедности.	kambag'allik holati.
INDIGENT	
нуждающийся, бедный.	muhtoj, kambag'al. .
INDIGNITY	
унижение, оскорбление.	kamsitish, haqoratlash.
INDIRECT	
непрямой, косвенный; ~ **cost** косвенные затраты; ~ **tax** косвенный налог; ~ **contempt** неповиновение решению суда; ~**motive** косвенное побуждение.	noto 'g'ri, bevosita, egri; ~ cost egri sarflamoq; ~ **tax** egri soliq. ~ **contempt** sud qaroriga bo'ysunmaslik; ~**motive** bilvosita undov.
INDISPENSABLE	
необходимый, обязательный; ~ **parties** стороны, участие которых необходимо для вынесения судебного постановления; ~**evidence** необходимое доказательство.	kerakli, majburiy; ~ **parties** sud qarori chiqarishi uchun qatnashishi zarur bo'lgan tomonlar; ~**evidence** zaruriy isbot.
INDISPUTABLE	
неоспоримый, бесспорный.	rad etib bo'lmaydigan.
INDISSOLUBILITY	
нерасторжимость.	bekor qilinmaslik.
INDISSOLUBLE	
нерасторжимый.	bekor qilinmagan.
INDIVIDUAL	
1. личный, индивидуальный; 2. личность, индивидуум; 3. физическое лицо;	1. shaxsiy, individual, yakka tartibda; 2. shaxsiyat; 3. jismoniy shaxs;

~ retirement account индивидуальный пенсионный счет; **private ~** частное лицо; **public ~** должностное лицо; **~ opinion** особое мнение.	**~ retirement account** individual pensiya hisobi; **private ~** xususiy shaxs; **public ~** mansabdor shaxs; **~ opinion** shahsiy mulohaza, fikr.
INDIVISIBLE	
неделимый.	bo'linmaydigan.
INDORSE	
1. расписываться на обороте; отмечать на обороте; 2. индоссировать делать передаточную надпись; жирировать; 3. вписывать (в документ); делать отметку (на документе); 4. указывать основание иска.	1.qog'oz orqasiga imzo chekmoq; qog'oz orqasiga belgi qo'ymoq; 2. esga tushuvchi yozuv yozmoq; 3. (hujjatga) yozmoq; (hujjatga) belgi qo'ymoq; 4. da'vo asosini ko'rsatmoq.
INDORSEE	
индоссат, жират.	uzatma yozuv.
INDORSEMENT	
1. подпись на обороте (документа); 2. передаточная надпись, индоссамент, жиро; 3. индоссирование с указанием основания иска; изложение исковых требований на обороте приказа о вызове в суд; **blank ~** бланковый индоссамент; **conditional ~** индоссирование, ограниченное определенными условиями; **general ~** 1. бланковая передаточная надпись; 2. общий индоссамент, простое индоссирование приказа о вызове в суд; **special ~** 1. именная передаточная надпись; 2. специальное индоссирование (приказа о вызове в суд); **trust ~** доверительный индоссамент; **unauthorized ~** неправомочный индоссамент.	1. (hujjat) orqasiga imzo chekmoq utishi uchun imzo; 2. uzatma yozuv; 3. da'vo asosini ko'rsatgan holda uzatish; da'vo talablarini sudga chaqirish haqidagi buyruqning orqa tomonida ko'rsatish; **blank ~** indossament blanki; **conditional ~** aniq cheklovlar shartlaridagi indossirovanie,; **general ~** 1. topshiriladigan blank yozuvi; 2. umumiy indossament, sudga chaqirish to'g'risida oddiy indossament buyrug'i; **special ~** 1. shaxsan topshiriladigan yozuv; 2. maxsus indossament (sud chaqiruv buyrug'i); **trust ~** ishonchli indossament; **unauthorized ~** vakolatsiz indossament.

INDORSER	
1. лицо, расписавшееся на обороте приказа о вызове в суд; 2. индоссант, жират.	sud chaqiruv qog'ozining orqa tomoniga imzo chekuvchi shaxs;
INDUCE	
побуждать, склонять.	undamoq, ko'ndirmoq.
INDUCEMENT	
1. побуждающий фактор, побуждение, стимул; 2. встречное удовлетворение; 3. вводная объяснительная (часть процессуальной бумаги).	1. majburlovchi omil, majburlash, qo'zg'atuvchi omil; 2. qarshi (tomonni) qondirish; 3. qo'shimcha tushuntirish (protsessual hujjat qismi).
INDUCT	
1. вводить во владение; 2. вводить в должность, зачислять на службу.	1.egalikka olmoq; 2. lavozim egallamoq, xizmatga tayinlamoq.
INDULGENCE	
1. привилегия; 2. отсрочка платежа.	1. imtiyoz, yengillik; 2. to'lovni kechiktirish.
INDUSTRIAL	
промышленный; производственный; ~ **accident** несчастный случай на производстве; ~ **court** промышленный суд; ~ **disease** заболевание, связанное с местом работы; профессиональное заболевание; ~ **disputes tribunal** суд по конфликтам в промышленности; ~ **legislation** фабричное законодательство.	sanoatga oid; ishlab chiqarishga oid; ~ **accident** ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa; ~ **court** xo'jalik sudi; ~ **disease** ish joyi bilan bog'liq bo'lgan kasallik, kasb kasalligi; ~ **disputes tribunal** xo'jalik nizolari bo'yicha sudi; ~ **legislation** ishlab-chiqarish qonunchiligi.
INDUSTRY	
1. промышленность, предприятие; отрасль; 2. деятельность; предпринимательство, бизнес; **illicit** ~ незаконный бизнес; **licit** ~ законный бизнес; **private** ~ частный бизнес; **public** ~ государственный бизнес.	1.sanoat, ishlab chiqarish; soha; 2. faoliyat; tadbirkorlik, biznes; **illicit** ~ noqonuniy biznes; **licit** ~ qonuniy biznes; **private** ~ hususiy biznes; **public** ~ davlat biznesi.

INEBRIATE	
алкоголик, пьяница.	alkogolga mubtalo bo'lgan, ichkilikka ruju qo'ygan.
INEBRIOUS	
1. пьяный; 2. пьющий.	1. mast; 2. ichuvchi.
INELIGIBILITY	
1. отсутствие права (ввиду неудовлетворения соответствующим установленным требованиям); неправомочность; 2. отсутствие права на занятие должности, отсутствие права на пребывание в должности.	1. huquqning mavjud emasligi (o'rnatilgan talablarga ko'ra qondirilmaydigan tartibda); qonuniy huquqqa ega emaslik; 2. mansab egallash huquqining mavjud emasligi.
INELIGIBLE	
1. не имеющий права (ввиду неудовлетворения соответствующим установленным требованиям); 2. лишенный права занятия должности; лишенный права на пребывание в должности.	1. huquqqa ega bo'lmagan (o'rnatilgan talablarga ko'ra qondirilmaydigan tartibda); 2. egallab turgan mansab huquqidan mahrum etilgan.
INEPT	
недействительный, утративший силу.	haqiqiy emas, kuchini yo'qotgan.
INEQUALITY	
неравенство.	tengsizlik.
INEQUITABLE	
несправедливый.	adolatsiz.
INEQUITY	
несправедливость	adolatsizlik.
INFAMOUS	
1. бесчестящий, позорящий; 2. лишенный гражданских прав/ ограниченный в гражданских правах в связи с совершением позорящего преступления; ~ **crime** позорящее преступления.	1. sharmandalik, uyatga qo'yuvchi; 2. fuqarolik huquqlaridan mahrum qilish/sharmanda jinoyat sodir qilishga ko'ra fuqarolik huquqlarda cheklanish; ~ **crime** sharmandali jinoyat.

INFAMY	
бесчестье, позор, лишение/ ограничение гражданских прав (как последствие осуждения за совершение позорящего преступления).	sharmanda, uyat, fuqarolik huquqidan mahrum etish/cheklash (sharmanda jinoyat sodir qilish oqibatidagi ayblovdek).
INFANCY	
1. несовершеннолетие; 2. малолетство; 3. возраст до 21 года (в Англии); **natural** ~ младенчество, ранний детский возраст.	1.voyaga etmaganlik; 2. bolalik; 3. 21gacha bo'lgan yosh (Angiliyada); **natural** – bolalik.
INFANT	
1. несовершеннолетний; 2. малолетний (не более семи лет); 3. не достигший возраста договорной дееспособности.	1.voyaga etmagan; 2. bolalik (7 yoshdan oshmagan); 3. shartnomaviy muomala layoqati yoshiga to'lmagan.
INFANTICIDE	
детоубийство.	bola o'ldirish, bolakushlik.
INFER	
1. заключать, делать вывод; 2. означать; подразумевать; ~ **an intent** сделать заключение о намерении; ~ **the identity of smb** установить личность; ~ **a motive** установить мотив.	1. yakunlamoq, xulosa qilmoq; 2. ma'no anglatmoq; nazarda tutmoq; ~ **an intent** o'z niyatlariga yakun yasamoq; ~ **the identity of smb** shaxsni aniqlamoq; ~ **a motive** niyatni aniqlamoq.
INFERENCE	
вывод, заключение, предположение на основании фактов; **adverse** ~ вывод в пользу противной стороны.	xulosa, dalillarga asoslangan taxmin; **adverse** ~ qarshi tomon foydasiga xulosa chiqarish.
INFERENTIAL	
выводимый путем заключение; ~ **evidence** косвенные доказательства.	xulosadan kelib chiqadigan; ~ **evidence** bilvosita isbotlar.
INFERIOR	
1. низший, нижестоящий, подчиненный; 2. некондиционный (о качестве товара); 3. нижестоящая инстанция; нижестоящее должностное лицо;	1.quyi turuvchi, bo'y sunuvchi; 2. talabga javob bermaslik (maxsulot sifati haqida); 3. quyi instantsiya; quyi mansabdagi shaxs;

civil ~ нижестоящее должностное лицо гражданского ведомства; ~**court** нижестоящий суд.	**civil** ~ fuqarolik holatida quyi mansabdagi shaxs; ~**court** quyi sud.
INFIDELITY	
супружеская неверность.	er-xotin bevafoligi.
INFIELD	
земля, прилегающая к усадьбе.	uy-joyga biriktirilgan er.
INFLATION	
инфляция, обесценение денег; ~ **rate** темпы инфляции.	inflyatsiya, pul qadrsizlanishi; ~ **rate** inflyatsiya sur'ati.
INFLICT	
1. наносить (вред); причинять (ущерб); 2. налагать (наказание и т. п.); ~ **a loss** причинять убыток; ~ **by act** причинить (вред) действием; ~ **by intent** причинить (вред) намеренно; ~ **by negligence** причинить (вред) по небрежности; ~ **by omission** причинить (вред) бездействием; ~**by recklessness** причинить (вред) по опрометчивости; ~ **damage** нанести убыток; ~ **involuntarily** нанести (вред) неумышленно; ~ **penalty** 1. назначить штраф: 2. присудить штрафную неустойку; ~ **the punishment** назначать наказание.	1. (ziyon) keltirmoq; (zarar) etkazmoq; 2. (jazo va h. k.) bermoq; ~ **a loss** zarar qilmoq; ~ **by act** xatti-harakati bilan (zarar) etkazmoq; ~ **by intent** qasddan (zarar) etkazmoq; ~ **by negligence** ehtiyotsizlikdan (zarar) etkazmoq; ~ **by omission** harakatsizlikdan (zarar) keltirmoq; ~ **by recklessness** shoshqaloqlik bo'yicha (zarar) keltirmoq; ~ **damage** ziyon yetkazmoq; ~ **involuntarily** o'ylamasdan (zarar) keltirmoq; ~ **penalty** jarima belgilamoq; 2. neustoyka jarimasini tayinlamoq; ~ **the punishment** jazo taynlamoq. ta'zirini bermoq.
INFLICTION	
1. нанесение, причинение (вреда); 2. назначение, наложение (штрафа, наказания); ~ **by innocence** невиновное нанесение (вреда); ~ **by negligence** причинение (вреда) по небрежности; ~ **by omission** причинение (вреда) бездействием; ~ **by recklessness** причинение (вреда) по опрометчивости; ~ **of damage** нанесение убытка; ~ **of harm** причинение вреда;	1. (zarar) keltirmoq, etkazmoq; 2. (jarima, jazo) tayinlamoq, belgilash; ~ **by innocence** aybsiz zarar yyetkazish; ~ **by negligence** ehtiyotsizlik tomonidan (zarar) etkazmoq; ~ **by omission** harakatsizlikdan (zarar) yetkazish; ~ **by recklessness** shoshqaloqlikdan (zarar) yetkazish;

~ **of loss** причинение убытка; ~ **of penalty** 1. назначение штрафа; 2. присуждение штрафной неустойки; **intended** ~ умышленное причинение (вреда); **involuntary** ~ неумышленное причинение (вреда); **known** ~ заведомое причинение (вреда); **negligent** ~ причинение (вреда) по небрежности; **unintended** ~ неумышленное причинение (вреда).	~ **of damage** ziyon yetkazmoq; ~ **of harm** ziyon etkazmoq; ~ **of loss** ziyon keltirmoq; ~ **of penalty** jarima tayinlash; **intended** ~ qasddan etkazilgan (zarar); **involuntary** ~ o'ylamasdan (zarar) yetkazish; **known** ~ bilib turib (zarar) yetkazish; **negligent** ~extiyotsizlikdan (zarar) yetkazish; **unintended** ~ o'ylamasdan (zarar) yyetkazish.
INFLUENCE	
1. влияние, воздействие; 2. оказывать влияние, влиять; **improper/undue** ~ злоупотребление влиянием; недолжное влияние.	1.ta'sir; 2. ta'sir ko'rsatmoq; **improper/undue** ~ ta'sir doirasini suiste'mol qilish; keraksiz ta'sir.
INFORM	
1. доносить, осведомлять; 2. подавать жалобу.	1. xabar bermoq, xabardor qilmoq; 2. shikoyat bermoq.
INFORMAL	
1. неформальный, неофициальный; 2. не удовлетворяющий требованиям; недостаточный по форме; ~ **warrant** ордер, выданный без соблюдения необходимых формальностей.	1. norasmiy; 2. talablarni qoniqtirmaydigan; shakl jihatidan etishmaydigan; ~ **warrant** rasmiyatchiliksiz berilgan buyruqnoma.
INFORMALITY	
отступление от формы; дефект формы; нарушение формальных требований.	shakldan chiqqan; shakl kamchiligi; rasmiy talablarni buzish.
INFORMATION	
1. заявление об обвинении; 2. жалоба, донос; 3. осведомленность; 4. изложение фактических обстоятельств дела; ~ **in the nature of quo warranto** судебная процедура выяснения правомерности претензий на должность, привилегию, право; **use** ~ заявлять жалобу (в суд).	1. ayblov, haqida ariza; 2. shikoyat; 3. xabardorlik; 4. ishning faktik vaziyatlarini ko'rsatish; ~ **in the nature of quo warranto** mansab huquq, imtiyoz, lavozimga suiste'molligi haqidagi shikoyatni to'g'riligini sud jarayoni; **use** ~ (sudga) shikoyat qilmoq.

INFORMER	
1. осведомитель о фактах правонарушений, доносчик; 2. заявитель, податель жалобы или иска; **common** ~ «истец за всех» (податель иска, который может быть предъявлен любым лицом).	1.faktik huquqbuzarlik haqida xabar beruvchi, xabar etkazuvchi; 2. da'vo yoki shikoyat beruvchi, arizachi; **common** ~ "hamma uchun da'vogar" (har qanday shaxs tomonidan berilishi mumkin bo'lgan da'vo beruvchi).
INFRACT	
нарушать (право, договор, обязанность).	buzmoq (huquq, shartnoma, majburiyat).
INFRACTION	
нарушение (права, договора, обязанности); несоблюдение; **administrative** ~ административное правонарушение, административный проступок; **civil** ~ гражданское правонарушение; **price** ~ нарушение правил назначения цен; **procedural** ~ процессуальное нарушение; **substantive** ~ нарушение нормы материального права; **trading** ~ нарушение правил ведения торгов; **traffic** ~ нарушение правил дорожного движения.	buzish (huquqni, shartnomani, majburiyatni); rioya qilmaslik; **administrative** ~ ma'muriy huquqbuzarlik; ma'muriy qilmish; civil ~ fuqarolik huquqbuzarligi; **price** ~ narx-navo belgilash qoidalarini buzish; procedural ~ **protsessual** huquqbuzarlik; substantive ~ moddiy huquq normalarini buzish; **trading** ~ savdo yuritish qoidalarini buzish; **traffic** ~ yo'l harakati qoidalarini buzish.
INFRINGE	
нарушать (закон, право, нормы).	(qonun, huquq, normalarni) buzmoq.
INFRINGEMENT	
нарушение (прав, закона, норм); **dress** ~ контрафакция упаковки изделия; контрафакция внешнего вида изделия.	(qonun, huquq, normani) buzish; **dress** ~ mahsulotni qadoqlash qoidalarini buzish, mahsulot tashqi ko'rinishini qadoqlash qoidalarini buzish.
INFRINGER	
нарушитель (патентных прав).	(patent huquqini) buzuvchi.
INGRESS	
право входа.	kirish huquqi.

INHABITANCY	
постоянное проживание; местожительство.	doimiy yashash manzili; yashash joyi.
INHERIT	
наследовать, получать в наследство; **~ by right of representation** наследовать по праву законного преемства; **~ by will** наследовать по завещанию.	meros qilib olmoq, meros olmoq; **~ by right of representation** qonun bo'yicha vorislik **~ by wbill** vasiyatnoma bo'yicha meros qilib olmoq.
INHERITANCE	
1. наследство; наследуемая недвижимость; 2. наследование; **~ in remainder** 1. наследование оставшейся части недвижимости; 2. наследование «выжидательной собственности»; **~ in reversion** наследование в порядке обратного перехода имущественных прав к первоначальному собственнику/ его наследнику; **canons of ~** нормы, регулирующие порядок наследования; **common ~** недвижимость, наследуемая как общая собственность; **family ~** недвижимость, наследуемая как семейная собственность: **several ~** наследование в частях, долях.	1.meros; meros qilinadigan ko'chmas mulk; 2. merosxo'rlik; **~ in remainder** meros qilinadigan ko'chmas mulk qismi; **~ in reversion** merosning qonuniy merosxo'rga o'tish tartibi; **canons of ~** merosni tartibga solib turuvchi normalar; **common ~** umumiy mulk sifatida o'tuvchi ko'chmas mulk; oila mulki sifatida o'tuvchi ko'chmas mulk; **several ~** merosdagi ulushlar.
INHERITOR	
наследник.	merosxo'r, voris.
INHERITRESS	
наследница.	merosxo'r ayol, voris ayol.
INHIBIT	
запрещать.	taqiqilamoq.
INHIBITION	
1. запрещение; 2. распоряжение вышестоящего суда нижестоящему о приостановлении производства дела до рассмотрения поданной по делу апелляции.	1. taqiq; 2. berilgan appelatsiya ishini ko'rib chiqquncha ish ko'rishni to'xtatish to'g'risida yuqori turuvchi sudning quyi turuvchi sudga bergan buyrug'i.

INHIBITORY	
запрещающий, запретительный.	taqiqlovchi, man qiluvchi.
INHUMAN	
негуманный, нечеловеческий; ~ **treatment** жестокое обращение.	insonparvar emas, odamga xos bo'lmagan; ~ **treatment** shafqatsiz muomala.
INIQUITY	
1. несправедливость; 2. беззаконие.	1.adolatsizlik; 2. g'ayriqonuniylik.
INITIAL	
1. первоначальный; 2. парафировать; 3. **pl** инициалы; ~ **term** первоначальный срок.	1. dastlabki; 2. oldindan rozilik bildirmoq; 3. **pl** initsiallar/ism sharfning bosh xarflari; ~ **term** dastlabki muddat.
INITIALLING	
парафирование.	oldindan rozilik bildirish.
INITIATE	
1. вводить; положить начало, основывать, начинать; 2. посвящать во что-либо; ~ **a case** возбудить дело; ~**an agreement** заключить соглашение; ~ **hearing** начать слушание дела; ~ **proceedings** возбудить дело, начать процесс; ~ **leads** выдвинуть версию.	1. kiritmoq; boshiga qo'ymoq, asos solmoq, boshlamoq; 2. biror narsaga bag'ishlamoq; ~ **a case** ish qo'zg'atmoq; ~ **an agreement** bitim tuzmoq; ~ **hearing** ish ko'rishni boshlamoq; ~ **proceedings** ish qo'zg'atmoq, protsesni boshlamoq; ~ leads o'z fikrini ifodalamoq, bildirmoq.
INITIATION	
1. введение; 2. основание, учреждение; 3. посвящение во что-либо;	1.kirish; 2. asos solish, ta'sis etish; 3. biror narsaga bag'ishlov;
~ **fee** вступительный взнос; ~ **of proceedings** возбуждение дела; ~ **of bills** законадательная инициатива.	~ **fee** kirish badali; ~ **of proceedings** ish qo'zg'atmoq; ~ **of bills** qonun loyixasini taklif qilish, qonuniylik, tashabbus.
INJECTION	
введение (наркотика) при помоши шприца.	(giyohvandlik moddasini) tibbiy igna orqali tanaga yuborish.

INJUNCTION	
1. судебный запрет; 2. запретительная норма; ~ **pendente life** судебный запрет на время рассмотрения дела; **civil** ~ запретительная гражданско-правовая норма; гражданско-правовой судебный запрет; **compromise-assessment-of-damages** ~ судебный запрет до определения суммы убытков по условиям мировой сделки; **interlocutory** ~ промежуточный судебный запрет; **permanent** ~ судебный запрет, остающийся в силе до конца судебного разбирательства; **perpetual** ~ запрет на неопределенное время; **prohibitory** ~ ограничительный судебный запрет.	1. sud ta'qiqi; 2. ta'qiq normasi; ~ **pendente life** ish ko'rish vaqtida sud ta'qiqi; **civil** ~ ta'qiqlov fuqarolik-huquqiy norma; fuqarolik-huquqiy sud ta'qiqi; **compromise-assessment-of-damages** ~ tinchlik shatlari bo'yicha zararlar summasini aniqlashgacha sud ta'qiqi; **interlocutory** ~ orliq sud ta'qiqi; **permanent** ~ sud muhokamasining oxirigacha kuchda qoluvchi sud ta'qiqi; **perpetual** ~ belgilanmagan muddatga ta'qiqlov; **prohibitory** ~ cheklangan sud ta'qiqi.
INJURE	
1. причинять вред; 2. нарушать права; 3. оскорбить, обидеть; ~ **character** повредить репутации.	1. zarar keltirmoq; 2. huquqni buzmoq; 3. haqoratlamoq, hafa kilmoq; ~ **character** ishchanlik obro'sini to'kmoq.
INJURER	
1. оскорбитель; обидчик; 2. лицо, наносящее ущерб.	1. haqoratlovchi; hafa kiluvchi; 2. zarar etkazuvchi shaxs.
INJURIA	
лат. 1. несправедливость; 2. посягательство на чужие права.	lot. 1. adolatsizlik; 2. o'zga huquqiga tajovuz qilish.
INJURIOUS	
наносящий вред, вредный; ~ **falsehood** клевета, ложь, наносящая реальный вред; ~ **to the public** общественно вредный; общественно опасный.	zarar etkazuvchi, zararli; ~ **falsehood** real zarar etkazadigan tuhmat, yolg'on; ~ **to the public** jamiyatga zararli, jamiyatga xavfli.

INJURY	
1. вред; ущерб; 2. телесное повреждение, ушиб; 3. нарушение права другого лица; ~ **by accident** случайный вред; случайное причинение вреда; ~ **in fact** фактический вред/ущерб; **civil** ~ гражданский вред, деликт, правонарушение; **claimed** ~ ущерб, заявленный истцом; **complete** ~ общая сумма ущерба; **continuing** ~ длящийся вред; **definite** ~ вред, определенный по характеру и тяжести; **employee** ~ несчастный случай на работе, производственная травма; **irreparable** ~ невозместимый ущерб; **legal** ~ гражданский вред; **malicious** ~ 1. злоумышленное причинение ущерба (имуществу); 2. злоумышленное причинение телесного повреждения; **pecuniary** ~ ущерб в деньгах, денежный ущерб; **permanent** ~ длящееся причинение вреда; **personal** ~ личный вред; оскорбление личности; **public** ~ нарушение прав и обязанностей, приносящие вред имуществу; **real** ~ вред, наносимый чести и достоинству личности; **relative** ~ побочный вред; **reparable** ~ вред, который можно возместить; **spiritual** ~ нанесение ущерба в области духовных благ; моральный ущерб; **temporal** ~ нанесение ущерба в области мирских благ; **threatened** ~ угроза причинения имущественного ущерба; **work** ~ производственная травма.	1. ziyon; zarar; 2. tan jarohati, lat emoq; 3. boshqa shaxs huquqini buzish; ~ **by accident** tasodifiy zarar; tasodifiy zarar yetkazish; ~ **in fact** faktik zarar; **civil** ~fuqarolik zarari, delikti, huquqbuzarligi; **claimed** ~da'vo qilingan zarar; **complete** ~zararninig umumiy summasi; **continuing** ~davom etuvchi zarar; **definite** ~xarakteri va og'irligiga qarab aniqlangan zarar; **employee** ~ishdagi baxtsiz hodisa, ishlab chiqarish jarohati; **irreparable** ~qoplab bo'lmaydigan zarar; **legal** ~fuqarolik zarari; **malicious** ~ 1. (mulkka) qasddan zarar yetkazish; 2. qasddan tan jarohat yetkazish; **pecuniary** ~pulda (etkazilgan) zarar, pul zarari; **permanent** ~davom etuvchi zarar; **personal** ~ shaxsiy zarar; shaxsiyatni haqoratlash; **public** ~mulkka zarar keltiruvchi huquq va majburiyatlarni buzish; **real** ~ shaxs obro'si va gururiga etkazilgan zarar; **relative** ~qo'shimcha zarar; **reparable** ~qoplab bo'ladigan zarar; **spiritual** ~ma'naviy zarar; **temporal** ~tinchlikka qarshi zarar miqdori; **threatened** ~mulkiy zarar yyetkazish havfi; **work** ~ishdagi tan jarohati.

INJUSTICE	
несправедливость; отказ в правосудии; **perpetrated ~** отказ в правосудии; акт неправосудия.	adolatsizlik; odil sudlovdan voz kechish; **perpetrated ~** odil sudlovda voz kechish; adolatsizlik dalolatnomasi.
INLAGATION	
восстановление в праве на судебную защиту.	sud himoyasiga bo'lgan huquqini tiklash.
INLAND	
внутренний (о государстве); **~ bill of exchange** переводной вексель, выставленный и оплаченный в пределах одного государства.	ichki (davlatga oid); **~ bill of exchange** bir davlat chegarasida qo'yilgan va to'langan, tushiriladigan veksel.
IN LITEM	
лат. в процессе судебного рассмотрения.	lot. sudda ish ko'rish jarayonida.
INMATE	
лицо, содержащееся в каком-либо учреждении (тюрьме, приюте).	(Huquq tartibot muassasida yoki qamoqxonada saqlanayotgan) xibsdagi shaxs.
INNOCENCE	
невиновность.	aybsizlik.
INNOCENT	
невиновный; неумышленный; добросовестный; **~ trespass** невиновное (ошибочное) посягательство на владение; **~ agent** "неответственный агент"; **~ in fact** фактически невиновный.	aybsiz; beixtiyor; vijdonli; **~ trespass** aybsiz (adashtlgan) holda egalikka tajovuz; **~ agent** beayb agent; **~ in fact** aslida aybsiz.
INNUENDO	
лат. порочащий намек, инсинуация.	lot. qoralashga ishora, insinuatsiya.
INOFFICIAL	
неофициальный.	norasmiy.
INOFFICIOUS	
противоречащий моральному долгу; несправедливый, наносящий обиду; **~ testament** завещание, противоречащее моральному долгу завещателя.	ahloqiy burchga zid; adolatsiz ayblash; **~ testament** vasiyatchining ahloqiy burchiga zid vasiyatnoma.

INOPERATIVE	
не имеющий силы; неэффективный.	kuchga ega bo'lmagan; besamara.
INOPERATIVENESS	
отсутствие юридической силы; недействительность.	yuridik kuchning mavjud emasligi; haqiqiy emaslik.
INQUEST	
дознание, следствие, расследование; ~ **of office** расследование по вопросам, связанным с имущественными правами короны; ~ **of lunacy** экспертиза для установления психического состояния.	dastlabki tergov, tergov; ~ **of office** podsholik mulkiy huquqlariga aloqador masalalar bo'yicha tergov; ~ **of lunacy** ruhiy holatni aniqlash uchun tekshiruv, ekspertiza.
INQUIRE	
1. запрашивать; 2. расследовать.	1. so'roq qilmoq; 2. tergov qilmoq.
INQUIRER	
спрашивающий, производящий опрос.	so'roq qiluvchi, so'roqni yurituvchi.
INQUIRY	
1. запрос; 2. расследование, исследование обстоятельств дела; обследование; 3. допрос; рассмотрение; **judicial** ~ судебное расследование; судебное рассмотрение; **ministerial** ~ административное расследование / рассмотрение; **preliminary** ~ предварительное производство по делу; **written** ~ письменный запрос; **adequate** ~ расследование, отвечающее требованиям; **commission of** ~ следственная комиссия; **renew the** ~ возобновить расследование.	1.so'rovnoma; 2. tergov, ish vaziyatini o'rganish; tekshiruv; 3. so'roq; ko'rib chiqish; **judicial** ~sud tergovi, sudda ish ko'rish; **ministerial** ~ ma`muriy tergov/ish ko'rish; **preliminary** ~ ish bo'yicha dastlabki ish yuritish; **written** ~ yozma so'rovnoma; **adequate** ~ talab darajasidagi tergov; **commission of** ~ tergov komissiyasi; **renew the** ~ tergovni tiklomoq.
INQUISITION	
следствие, дознание, расследование; ~ **of office** расследование по вопросам, связанным с имущественными правами короны.	dastlabki tergov, tergov; ~ **of office** podsholik mulkiy huquqlariga aloqador masalalar bo'yicha tergov.

INQUISITOR	
судебный следователь.	sud tergovchisi.
IN REM	
лат. 1. в отношении самой вещи; 2. вещный, абсолютный (о праве).	lot. 1. ashyoning o'ziga bo'lgan munosabat; 2. ashyoviy, mutlaq (huquq haqida).
INROAD	
посягательство (на чьи-либо права).	(kimningdir huquqiga) tajovuz.
INSANE	
1. душевнобольной; 2. невменяемый; **become** ~ заболеть душевной болезнью; **partially** ~ ограниченно вменяемый.	1. ruhiy kasal; 2. aqli noraso; **become** ~ ruhiy kasallikka chalinmoq; **partially** ~ cheklangan aqli raso.
INSANITY	
1. умопомешательство, душевная болезнь; 2. невменяемость; ~ **supervening after the trial** душевное расстройство/ невменяемость, наступившие после рассмотрения дела в суде; **emotional** ~ эмоциональное расстройство; **established** ~ установленная невменяемость; **mental** ~ психическое расстройство; невменяемость; **moral** ~ нравственное помешательство; **partial** ~ ограниченная вменяемость.	1. aqldan ozgan. ruhiy kasallik; 2. aqli norasoliq; ~ **supervening after the trial** sud ishi ko'rib bo'lgandan keyin orttirilgan aqli norasoliq/ ruhiy kasallik; **emotional** ~ hissiyot kasalligi; **established** ~ aqli noraso deb topish; **mental** ~ psixik kasallik; aqli norasoliq; **moral** ~ ahloqiy telbalik; **partial** ~ cheklangan aqli rasoliq.
INSCRIPTION	
запись, регистрация.	yozmoq, qayd qilish.
INSINUATION	
порочащие намеки, инсинуация.	qoralovchi ishora, insinuatsiya.
INSOLVENCY	
неплатежеспособность, банкротство, несостоятельность.	to'lashga imkon(iyat)sizlik, bankrotlik,to'lovga qobiliyatsizlik.
INSOLVENT	
несостоятельный; несостоятельный должник.	to'lashga imkon(iyat)siz; to'lovga qobiliyatsiz, qarzdor.

INSPECT	
тщательно осматривать; проверять; инспектировать.	sinchiklab tekshirmoq; tekshirmoq.
INSPECTION	
1. осмотр, инспектирование; проверка; 2. освидетельствование; экспертиза; ~ **general** ревизор; ~ **laws** правила инспектирования грузов, товара; ~ **rights** права покупателя на осмотр товара; **building** ~ строительный надзор; **labour** ~ проверка условий труда.	1. ko'rik, tekshiruv; 2. tekshiruv o'tkazish; ekspertiza; ~ **general** teftishchi; ~ **laws** yuk, tovar/ mol tekshiruv qoidasi; ~ **rights** xaridorning molni tekshirib olish huquqi; **building** ~ qurilish tekshiruvi; **labour** ~ mehnat sharoitini tekshirish.
INSPECTOR	
1. инспектор; 2. ревизор; контролер; 3. надзиратель; **customs** ~ таможенник; **labour** ~ инспектор контроля над условиями труда; **revenue** ~ инспектор службы внутренних доходов, налоговый инспектор; ~ **of police** полицейский инспектор.	1. inspektor, nazoratchi; 2. taftishchi; tekshiruvchi; 3. (qamoqxona) nazoratchi; **customs** ~ bojxonachi; **labour** ~ mehnat sharoitlari ustidan nazorat inspektori; **revenue** ~ ichki daromadlar xizmati inspektor, soliq **inspektori**; ~ of police politsiya nazoratchisi.
INSTALL	
вводить в должность.	mansabga ko'tarmoq.
INSTALLATION	
введение в должность.	mansabga ko'tarilish.
INSTALLMENT	
частичный платеж, очередной платеж (при рассрочке платежа); взнос; ~ **account receivable** частичный платеж счета дебитора; ~ **contract** договоренность, основанная на периодическом исполнении и периодических выплатах; ~ **credit** потребительский кредит; кредит на покупку в рассрочку; ~ **land contract** контракт на покупку земли, предполагающий рассрочку платежа и вступление во владение только после последней выплаты;	(bo'lib-bo'lib to'lashdagi) qisman to'lov, navbatdagi to'lov; badal; ~ **account receivable** debitor hisobi qisman to'lovi; ~ **contract** davriy bajarish va davriy to'lovlarga asoslangan shartnoma; ~ **credit** iste'mol krediti; bo'lib-bo'lib to'lash shartidagi sotib olish krediti; ~ **land contract** bo'lib-bo'lib to'lash va egalikka faqatgina oxirgi to'lovni amalga oshirgandan so'nggina kirish sharti asosidagi er sotib olish shartnomasi;

~ **loan** ссуда, погашаемая в рассрочку; ~ **of date** рассрочка платежа; ~ **of debt** частичный платеж, очередной платеж долга (при рассрочке платежа); **annual** ~ годовой взнос; **by** ~**(s)** в рассрочку.	~ **loan** bo'lib-bo'lib to'lanadigan ssuda; ~ **of date** bo'lib-bo'lib to'lash; ~ **of debt** (bo'lib-bo'lib to'lashdagi) qisman to'lov, navbatdagi to'lov; **annual** ~ yillik badal; **by** ~**(s)** bo'lib-bo'lib to'lashga.
INSTANCE	
1. просьба, требование; 2. инстанция; 3. производство дела в суде; **appeals** ~ апелляционный суд; апелляционная инстанция; **final** ~ последняя инстанция; **first** ~ первая инстанция.	1. iltimos, talab; 2. instantsiya; 3. sudda ish yuritish; **appeals** ~ apellyatsiya sudi; apellyatsiya instantsiyasi; **final** ~ oxirigi instantsiya; **first** ~ birinchi instantsiya.
INSTANT	
1. настоятельный 2. безотлагательный ~ **danger** непосредственная угроза; ~ **death** внезапная смерть; немедленная смерть.	1. dolzarb 2. Darhol amalga oshiriladigan; ~ **danger** bevosita ko'zga ko'rinib turgan xavf; ~ **death** darhol yuzaga chiqadigan o'lim.
INSTITUTE	
1. учреждать; устанавливать; основывать, начинать; 2. учреждение, институт; 3. институт (правовой, политический); 4. назначать наследника; 5. назначенный наследник; ~ **an action** подавать иск;	1. ta'sis etmoq; o'rnatmoq; asoslamoq, boshlamoq; 2. ta'sis etish, institut; 3. (huquqiy, siyosiy) institut; 4. merosxo'r tayinlash; 5. tayinlangn merosxo'r; ~ **an action** da'vo bermoq;
~ **proceedings** возбуждать дело; ~ **a criminal charge** возбуждать уголовное преследование.	~ **proceedings** ish qo'zg'atmoq; ~ **a criminal charge** javobgarlikka tortish uchun ish qo'zg'ash.
INSTITUTION	
1. учреждение, установление, основание, введение; 2. институт (правовой, политический); 3. назначение наследника; 4. возбуждение (дела); ~ **of justice** орган юстиции; ~ **of proceedings** возбуждение дела; **inherited** ~ наследственный институт;	1. ta'sis etish, o'rnatish, asoslash; boshlash; 2. (huquqiy, siyosiy) institut; 3. merosxo'r tayinlash; 4. (ish) qo'zg'atish; ~ **of justice** adliya organi; ~ **of proceedings** ish qo'zg'atish;

legal ~ правовой институт; **public** ~ публичное, государственное учреждение.	**inherited** ~ meros instituti; **legal** ~ huquq instituti; **public** ~ ommaviy, davlat muassasasi.
INSTITUTIONARY	
институционный, относящийся к судам/юридическим учреждениям.	huquqiy ta'sis etish/sudga tegishli institutga oid.
INSTIGATE	
подстрекат; ~ **proceedings** возбуждать дело.	undamoq, etaklamoq; ~ **proceedings** ish qo'zg'amoq.
INSTIGATION	
Подстрекательство.	(jinoyatga, qing'ir ishga) undamoq, etaklamoq, yo'lga solmoq.
INSTIGATOR	
подстрекатель.	qing'ir ishga etaklovchi.
INSTRUCT	
1. отдавать распоряжения, давать инструкции, приказывать; 2. знакомить (адвоката) с обстоятельствами дела; 3. уведомлять.	1. buyruq bermoq; 2. ish holati bilan (advokatni) tanishtirish; 3. xabardor qilmoq.
INSTRUCTION	
бедность, нужда; ~ **affidavit** письменные показания под присягой, свидетельствующие о финансовой несостоятельности лица и неспособности оплатить судебные издержки.	kambag'allik, muhtojlik; ~ **affidavit** sud xarajatlarini to'lash imkoniyatiga ega bo'lmagan va moliyaviy chorasizligini tasdiqlovchi, qasamyod ostida yozma ko'rsatmalar.
POWER	
1. способность; право; 2. компетенция; полномочие; 3. власть; ~ **of alienation** право на лишение собственности; ~ **of appointment** доверенность на распределение наследственного имущества; ~ **of attorney** полномочие; доверенность;	1.qobiliyat; huquq; 2. layoqat; vakolat; 3. hokimiyat; ~ **of alienation** egalikdan mahrum qilish huquqi; ~ **of appointment** meros mulkini taqsimlashga ishonchnoma; ~ **of attorney** vakolat; ishonchnoma;

~ **of attorney and substitution** доверенность с правом передоверия; ~ **of disposition** право распоряжаться собственностью; **treaty-making** ~ право на заключение международного договора; **veto** ~ право вето; **voting** ~ право участия в голосовании, право голоса. ~ **to initiate legislation** – право законадательной инициативы **pardoning** ~ право помилования	~ **of attorney and substitution;** qayta ishonch berish huquqini o'z ichiga olgan ishnchnoma;~ **of disposition** mulkni tasarruf etish huquqi; **treaty-making** ~xalqaro shartnoma tuzish huquqi; **veto** ~veto huquqi; **voting** ~ saylovda qatnashish huquqi, ovoz huquqi ~ **to initiate legislation** –qonunchilik tashabbusi huquqi **pardoning** ~ avf etish huquqi
PRACTICE	
1. практика; обыкновение; 2. процессуальные нормы; процессуальное право.	1. amaliyot; odat; 2. protsessual norma; protsessual huquq.
PRAEDIA	
лат. недвижимость.	lot. ko'chmas mulk.
PRAESUMPTIO	
лат. презумпция; ~ **juris** лат. правовая презумпция.	lot. prezumpsiya, ~ **juris** lot. huquqiy prezumptsiya.
PRE-CONTRACT	
предшествующий договор; ранее заключенный договор.	oldin tuzilgan shartnoma.
PRAY	
настоятельно просить.	qayta-qayta/qat'iy so'ramoq.
PRAYER	
настоятельная просьба, ходатайство; ~ **for discharge** 1. ходатайство об освобождении от ответственности; 2. . ходатайство о прекращении обязательства; 3. ходатайство о восстановлении в правах несостоятельного должника; ~ **for relief** 1. ходатайство о назначении / о выплате пособия; 2. ходатайство о предоставлении судебной защиты; 3. ходатайство об освобождении (от уплаты, ответственности).	qat'iy iltimos, rasmiy iltimos; ~ **for discharge** 1. javobgarlikdan ozod qilish haqida rasmiy iltimos; 2. majburiyat to'xtatish haqida rasmiy iltimos; 3. to'lov imkoniyatiga ega bo'lmagan qarzdoming huquqlariga tiklash haqida rasmiy iltimos; ~ **for relief** 1. tayinlash/nafaqa to'lash haqida rasmiy iltimos; 2. sud himoyasi olish haqida rasmiy iltimos; 3. (to'lov, javobgarlikdan) ozod qilish haqida rasmiy iltimos.

PRECARIOUS	
1. случайный, ненадежный, сомнительный; 2. рискованный, опасный; 3. необоснованный; **make a ~ living** жить случайными доходами; ~ **possession** отзывное владение; ~ **right** случайное право владения.	1. bexos, ishonib bo'lmaydigan, shubhali; 2. xavf-xatarli; 3. asoslanmagan; **a ~ living** tasodifiy daromadlar bilan yashamoq; ~ **possession** so'rab olingan egalik; ~ **right** tasodifiy egalik huquqi.
PRECAUTIONS	
Меры предосторожности	ehtiyot choralari
PRECEDE	
1. предшествовать; 2. превосходить по старшинству.	1. ilgari bo'lmoq; 2. kattalik bo'yicha ustun bo'lmoq.
PRECEDENCE, PRECEDENCY	
старшинство; приоритет.	kattalik; birinchilik.
PRECEDENT	
1. прецедент; 2. предварительный; предшествующий. ~ **condition** – предварительное условие	1. pretsedent; 2. dastlabki; oldingi. ~ **condition** – s dastlabki shart
PRECEPT	
предписание; приказ; указание.	ko'rsatma, buyruq.
PRECLUDE	
устранять; предотвращать; ~ **from** препятствовать.	oldini olmoq; ~ **from** qarshilik ko'rsatmoq.
PRECINCT	
Полицейский участок	politsiya mahkamasi
PREDECESSOR	
1. предок; 2. предшественник; правопредшественник.	1. ajdod; 2. oldin o'tgan; oldin o'tgan shaxsning o'rnini egallovchi.
PREDELINQUENY	
Допреступное состояние	Jinoyatdan oldingi holat
PREDICT	
предсказать	Bashorat qilmoq
PREDICTION	
Предсказание ~ **score** – досье заключенного , дающее возможность предсказать его будущее поведение	Bashorat ~ **score** – maxbusning kelajakdagi harakatini ko'rsatib beruvchi hujjatlar

~ **study** – исследование с целью предсказать будущее поведение преступника	~ **study** – jinoyatchining kelajakdagi harakatini o'rganish
PREFER	
1. оказывать предпочтение; предпочитать; предоставлять преимущество; 2. подавать, заявлять (требование и т. д.).	1. afzal ko'rmoq; hurmat ko'rsatmoq; ortiq ko'rmoq; 2. (talab va b.) so'ramoq, arz qilmoq.
PREFERENCE	
1. предпочтение; преимущественное право; 2. подача, заявление (требования и т. д.); **fraudulent** ~ действие, направленное в пользу одного из кредиторов в ущерб остальным.	1.afzallik, ustunlik huquqi; 2. (talab va b.) so'rash, arz qilish; **fraudulent** ~ kreditorlardan biri uchun foydaga, boshqalari uchun zararga yo'naltirilgan harakat.
PREGNANCY	
беременность.	homiladorlik.
PREHENSION	
завладение.	egalik.
PREJUDGE	
предрешать; выносить решение до рассмотрения дела в суде.	oldindan hal qilmoq; ishni sudda ko'rib chiqquncha qarormoq.
PREJUDICAL	
вредный; ~ **error** ошибка, наносящая вред законным правам истца.	zararli; ~ **error** qonuniy da'vogar huquqlariga zarar yetkazuvchi xato.
PREJUDICE	
1. вред, ущерб; 2. наносить ущерб; **in** ~ в ущерб, во вред.	1. ziyon, zarar; 2. zarar keltirmoq; **in** ~ zarariga, ziyoniga.
PREJUDICIAL	
причиняющий вред, наносящий ущерб.	ziyon keltiruvchi, zarar etkizuvchi.
PRELIMINARY	
предварительный, прелиминарный; ~ **hearing** предварительное слушание дела; ~ **proof** первое доказательство ущерба в соответствии со страховым полисом.	oldingi; ~ **hearing** ishni daslabki ko'rish; ~ **proof** sug'urta polisiga muvofiq zararning birinchi isboti.

~ **article** – вводная статья ~ **identification** предварительное опознание ~**inquiry** предварительное следствие ~ **interview** предварительная беседа с подозреваемым ~ **survey** – предварительный осмотр	~ **article**- bosh moda, maqkola ~ **identification** daslabki aniqlash ~**inquiry** daslabki tergov ~ **interview** shubhadagi shaxs bilan dastlabki suhbat ~ **survey** dastlabki ko'zdan kechirish
PREMEDITATED	
Предумышленный ~ **malice**- заранее обдуманный злой умысел	avvaldan tayyorlangan ~ **malice**- avvaldan tayyorlangan qora niyat
PREMEDITATION	
Предумышление	qasddan qora niyat qilish
PREMISES	
недвижимость	ko'chmas mulk
PREMIUM	
1. премия (страховая); 2. награда; **insurance** ~ страховая премия; **unearned** ~ возвращаемая часть страховой премии (при аннулировании полиса).	1. (sug'urta) mukofoti; 2. taqdirlov, mukofot; **insurance** ~ sug'urta mukofoti; **unearned** ~ (polisni bekor qilishdagi) sug'urta mukofoti.
PRENUPTIAL AGREEMENT	
добрачное соглашение супругов, синоним ANTENAPTIAL AGREEMENT.	er-xotinning nikohgacha kelishuvi, sinonim ANTENAPTIAL AGREEMENT.
PREPAYMENT	
предварительная оплата; предоплата; ~ **penalty** штраф за досрочное погашение ссуды.	dastlabki to'lov; oldindan to'lash; ~ **penalty** ssudani muddatidan oldin to'lash uchun jarima.
PREPONDERANCE OF EVIDENCE	
Наличие более веских доказательств	Ancha tarozi bosadigan dalil mavjudligi
PREROGATIVE	
Исключительное право	Imtiyozli (mutlaq)huquq
PRESCRIBE	
предписывать	qilinadigan harakatni oldindan tasvirlab bermoq, da'vat qilmoq
PRESCRIPTION	
предписание	Chaqiriq da'vat

PRE-PUBLICATION	
публикация до издания, осуществленного в соответствии с авторским договором.	muallif shartnomasiga muvofiq nashrgacha bosish.
PRESENT	
1. подавать, представлять, предъявлять, вручать; 2. дар; 3. присутствующий; 4. настоящий, данный; ~ **a petition** представлять прошение; заявлять ходатайство; ~ **enjoyment** настоящее обладание (правом), пользование (правом); ~ **estate** настоящее владение недвижимостью; ~ **interest** настоящее право владения; ~ **one's case** излагать доводы, аргументацию; давать объяснения по делу; выступать в прениях сторон. ~ **a case** - излагать дело	1. bermoq, taqdim qilmoq, topshirmoq; 2. hadya; 3. qatnashuvchi; 4. haqiqiy, berilgan; ~ **a petition** ariza taqdim qilmoq; rasmiy iltimos bermoq; ~ **enjoyment** (huquqqa) haqiqiy egalik, (huquqdan) foydalanish; ~ **estate** ko'chmas mulkning haqiqiy **egaligi**; ~ interest haqiqiy egalik huquqi; ~ **one's case** isbot, dalil keltirmoq; ish bo'yicha tushuntirish bermoq; tomonlarning debatida chiqmoq. ~ **a case** - ish mazmunini bayon qilmoq
PRESENTATION	
подача, представление, вручение; ~ **of cases** прения сторон; ~ **of cheque** предъявление чека к оплате; ~ **of a credentials** вручение верительных грамот.	berish, shamoyish, taqdimot; ~ **of cases** tomonlarning chiqishi; ~ **of cheque** to'lov uchun chek ko'rsatmoq;~ **of a credentials** ishonch yorliqlarini topshirish.
PRESENTER	
1. предъявитель, податель; 2. даритель.	1. taqdim qiluvchi, beruvchi; 2. hadya qiluvchi.
PRESENTMENT	
1. сделанное под присягой заявление присяжных об известных им фактических обстоятельствах по делу; 2. предъявление векселя к акцепту/оплате.	1. ish bo'yicha ularga malum bo'lgan dalillarga asoslangan holat haqida hakamlarning qasamyod ostida qilingan ariza; 2. ida murojat qilish; 2. vekselni to'lashga ko'rsatish.
PRESIDE	
председательствовать (в судебном заседании), руководить заседанием.	(sud majlisida) raislik qilmoq, sud ishida raislik qilmoq, majlisni boshqarmoq.

PRESUME	
презюмировать.	taxmin qilmoq.
PRESUMPTION	
Презумпция , предположение **~of innocence** – презумпция невиновности	nazardagi fikr, taxmin **~of innocence** – kishini aybsiz ekanini nazarga tutish
PRESUMPTIVE	
Предполагаемый ~ **evidence** - косвенное доказательство	taxmin kilingan ~ **evidence** - ikkinchi darajali isbot va dalillar
PRETENCE	
1. притворство, обман; 2. отговорка; 3. претензия; требование; **to obtain (property) by false ~s** обратить чужое имущество в свою собственность обманным путем, совершить мошенничество; **under** ~ под предлогом; **under the ~ of right** под предлогом имеющегося права. **Under false** ~ обманным путем	1. soxtalik, aldov; 2. etiroz; 3. shikoyat; talab; **to obtain (property) by false ~s** aldov yo'li bilan birovning mulkini o'z mulkiga aylantirmoq, firibgarlik qilmoq; **under** ~bahona ostidan; **under the ~ of right** mavjud huquqni bahona qilgan holda. **Under false** ~qalloblik yo'li bilan
PRETEND	
1. претендовать; 2. симулировать; выдавать себя за кого-либо.	1.talabgor bo'lmoq; 2. mug'ombirlik qilmoq; o'zini boshqa shaxs deb ko'rsatish.
PRETENDER	
1. претендент; 2. симулянт.	1.talabgor. 2. ikkiyuzlamachi.
PRETENSION	
претензия; притязание; заявление прав на что-либо.	shikoyat; talab; biror nima huquqiga arz qilish.
PRETEXT	
предлог, мотив.	bahona, sabab.
PREVAIL	
1. существовать; действовать; 2. преобладать; иметь преимущественную силу; ~ **ing party** сторона, выигравшая дело в суде.	1. mavjud bo'lmoq; harakat qilmoq; 2. ustunlik kuchiga ega bo'lmoq; **~ing party** sudda ishni yutib chiqqan tomon.
PREVALENCE	
преобладание; преимущественная сила.	ustunlik, afzallik; ustunlik kuchi.

PREVARICATE	
1. совершать злоупотребления по службе; совершать служебные проступки; 2. вступать в незаконные сделки.	1. xizmat bo'yicha mansabni suiste'mol qilmoq; xizmat xatolarini sodir qilmoq; 2. noqonuniy kelishuvda qatnashmoq.
PREVARICATION	
1. служебное злоупотребление; служебный проступок; 2. хитрость, увиливание.	1. mansabni suiste'mol qilish; xizmat xatosi; 2. ayyorlik, chalg'itish.
PREVENT	
предупреждать, предотвращать.	ogohlantirmoq, oldini olmoq.
PREVENTION	
предотвращение; предупреждение, профилактика; **accident** ~ 1. техника безопасности; 2. предупреждение несчастных случаев.	oldini olish; ogohlantirish; **accident** ~ 1. texnika xavfsizligi; 2. baxtsiz hodisada ogohlantirish.
PREVENTIVE	
предупредительный, превентивный. ~ **detencion** – превентное заключение ~ **war**- превентивная война	hushyor, oldini oluvchi. ~ **detencion** – ogoh qiluvchi xulosa ~ **war** ma'lum harakatning oldini oluvchi urush
PREVIOUS	
Предыдущий , предварительный ~**concert** –предварительный сговор ~**conviction** прежние осуждения ~**offence** – раннее совершенное преступление	Avvalgi . dastlabgi ~**concert** –dastlabki fitna ~**conviction** – muqaddam (avval) sudlanganlik ~**offence** avval sodir etilgan jinoyat
PRICE	
цена; стоимость; ~ **discrimination** дискриминация в ценах; **agreed** ~s договорные цены; **contract** ~ договорная цена; **sale** ~ продажная цена.	narx; baho; ~ **discrimination** narxlarda kamsitish; **agreed** ~**s** kelishilgan narxlar; contract ~ kelishilgan narx; **sale** ~ sotish narxi.
PRIMA FACIE CASE	
Наличие достаточно серьезно доказательств для возбуждения дела	Jinoyat ishi qo'zg'ash uchun yetarli dalilning mavjudligi

PRIMA FACIE EVIDENCE	
Доказательство , достаточное при отсутствии возражении	E'tiroz bo'lmaganida yetarli hisoblanadigan dalil
PRIMA FACIE PROOF	
Очевидные доказательства	Ko'zga ko'rinib turgan aniq dalil
PRIMARIES	
Выборы делегата на партийный с'езд , выборы кандидатов на баллотировку на всеобщих выборах	Partiyaviy qurultoyga vakillar saylovi, saylanish uchun nomzodlar tanlovi
PRIMARY	
1. первоначальный; первый по хронологии; 2. основной, главный; ~ **beneficiary** лицо, обозначенное в страховом полисе, которое получает выручку по смерти страхователя; ~ **insurance coverage** обязательства по страхованию, вступающие в силу сразу после происшествия; ~ **obligation** основное обязательство (стороны контракта). ~ **boycott** байкот предпринимателя профсоюзам ~**election** выборы делегатов на с'езд , кандидатов для баллатировки ~**evidence** – первичное подлинное доказательство ~**rights** - основные права	1. ilk, dastlabki; xronologiya bo'yicha birinchi; 2. asosiy, bosh; ~ **beneficiary** sug'urta qiluvchining o'limi bo'yicha sug'urta polisida daromad olishi belgilangan shaxs; ~ **insurance coverage** falokatdan so'ng kuchga kiradigan sug'urta bo'yicha majburiyatlar;~ **obligation** (shartnomadagi tomonlarning) asosiy majburiyati. ~ **boycott** –e'lon qilingan dastlabki boykot ~**election** qurultoyga vakillar saylovi , saylanish maqsadida nomini qo'yish uchun nomzodlar saylash ~**evidence** –dastlabki xaqqoniy ko'rsatma~**rights** – asosiy huquqlar
PRINCIPAL	
1. главный, основной; 2. принципал; доверитель; 3. основной должник (в отличие от поручителя); 4. главная вещь (в отличие от принадлежности); 5. основная сумма (в отличие от процентов); ~ **in the case** главная сторона по делу; ~ **s to the contract** непосредственные участники договора.	1.bosh, asosiy; 2. tamoyilli;ishonch beruvchi; 3. (kafil bo'lgan shaxsdan farq qiladigan) asosiy qarzdor; 4. asosiy buyum (ashyodan farq qiladigan); 5. asosiy summa (foizlardan farq qiladigan); ~ **in the case** ish bo'yicha asosiy tomon;~s **to the contract** shartnoma bo'yicha asosiy ishtirokchilar; 5. asosiy jamg'arma

~ **challenge** – отвод присяжного или состава присяжных в силу очевидных пристрастностей ~**contract** основной договор ~ **fact** устанавлеваемая по делу истина ~**felon** – исполнитель преступления ~ **in the first degree** исполнитель первой степени (преступник или фактический участник преступления) ~ **in the second degree** исполнитель второй степени (лицо , оказывающий пособничество преступлению)	~ **in the case** ish bo'yicha asosiy tomon;~ **s to the contract** shartnomaning bevosita ishtirokchisi. ~ **challenge** hay'at a'zolarining muhokamada qatnashishlarini rad qilish ~**contract** asosiy shartnoma ~ **fact** - ish bo'yicha aniqlanadigan haqiqat~**felon** bosh jinoyatchi ~ **in the first degree** birinchi darajali jinoyatchi (asosiy jinoyatchi yoki uning sheriklari) ~ **in the second degree** ikkinchi darajali jinoyatchi (jinoyatda sheriklik qilgan shaxs)
PRINT	
Оттиск , отпечаток , след	Iz , nusxa , ko'chirma
FINGER PRINT	
Отпечатки пальца	Barmoq izi
PRIOR	
Предшествующий , предварительный , преимущественный ~ **permission** – предварительное разрешение ~**right** – преимущественное право	Dastlabki, boshlang'ich imtiyozli, afzal ~ **permission** – avvalgi ruxsat ~**right** - imtiyozli huquq
PRIORITY	
1. приоритет; первенство; преимущественное право; 2. очередность; первоочередность; ~ **of creditors** очередность удовлетворения требований кредиторов; ~ **of liens** преимущественное залоговое право; **top** ~ внеочередность; первоочередное преимущественное право. ~**right** – преимущественное право	1. ustunlik, daraja; birinchilik; ustunlik huquqi; 2. navbatlilik, birlamchilik; ~ **of creditors** kreditor talabini birinchi darajali qoniqtirish; ~ **of liens** birinchi darajali garov huquqi; **top** ~navbatdan tashqarilik; imtiyozli huquq birlamchiligi. ~**right** - imtiyozli huquq
PRISON	
тюрьма. ~ **breaker** – бежавший из тюрьмы ~**governor** комендант тюрьмы	qamoqxona. ~ **breaker** tyurmadan qochgan ~ **governor** qamoqxona boshligi

~ **industry** труд тюрьмы ~ **law** тюремное право ~ **medical service** тюремная медицинская служба ~ **rules** тюремное правило **female** ~ женская тюрьма **male**~ мужская тюрьма **open**~ открытая тюрьма	**industry** qamoqxona mehnati~ **law** qamoqxona huquqi ~ **medical service** qamoqxona tibbiy xizmati~ **rules** qamoqxona tartib-qoidasi **female**~ ayollar qamoqxonasi **male**~ erkaklar qamoqxonasi **open**~ ochiq qamoqxona
PRISONER	
1. заключенный; 2. обвиняемый, находящийся под стражей; **civil** ~ заключенный, находящийся в тюрьме в порядке исполнения судебного решения по гражданскому делу. ~ **of war** военнопленный ~ **of state** государственный преступник ~ **on bail** – подсудимый отпущенный на поруки ~ **s desk** скамья подсудимого ~**board** совет по делам тюрем **close**~ строго охраняемый заключенный	1. maxbus; 2. ayblanuvchi, qo'riqlanishda bo'lish: **civil** ~fuqarolik ishi bo'yicha sud qarorini ijro etish tartibida qamoqxonada bo'luvchi maxbus. . ~ **of war** - asir ~ **of state** davlat jinoyatchisi ~ **on bail** kafolat asosida ozodlikda yurgan sudlanuvchi ~ **s desk** kora kursi ~**board** qamoqxona bo'yicha kengash **close**~ kattik kuriklanadigan maxbus
PRIVACY	
тайна, секретность, конфиденциальность; ~ **of correspondence/of letters** тайна переписки; ~ **laws** законы, защищающие частную жизнь гражданина; **personal** неприкосновенность личной жизни; **right of** ~ право на невмешательство в частную жизнь.	sir, yashirinlik; ~ **of correspondence/ of letters** yozishmalarning sir saqlanishi; ~ **laws** fuqaroning shaxsiy hayotini himoya qiluvchi qonun; **personal** shaxsiy hayot daxlsizligi; **right of** ~ shaxsiy hayotga arlashmaslik huquqi;
PRIVATE	
1. частный; неофициальный; 2. конфиденциальный; 3. закрытый (о заседаниях); ~ **foundations** частные учреждения; ~ **individual/ person** частное лицо; ~ **placement** усыновление (удочерение) ребенка без вмешательства агентства по усыновлению;	1.xususiy; norasmiy. 2. sirli. 3. yopiq (sud muhokamalari haqida) ; ~ **foundations** xususiy idora; **individual/person** yakka tartibdagi xususiy shaxs; ~ **placement** bola asrab olish agentligi aralashuvsiz o'g'il yoki qiz bolani asrab olish;

– **wrong** деликт, гражданское правонарушение. ~ **agent** – представитель частного лица – **bill** частный законопроект ~**execution** тайная смертная казнь ~**defence** необходимая оборона ~ **detective** частный детектив ~ **law** частное право ~ **meeting** закрытое заседание ~**proprty** частная собственность	~ **wrong** delikt, fuqarolik *huquqbuzarligi*. ~ **agent** xususiy shaxs vakili ~ **bill** xususiy qonun loyixasi ~**execution** yashirin o'lim jazosi ~**defence** xususiy uz-o'zini himoya qilish ~ **detective** xususiy izquvar ~ **law** xususiy huquq ~ **meeting** yopiq majlis ~**proprty** xususiy mulk
PRIVATELY	
в частном порядке; неофициально; – **-owned** находящийся в частной собственности, частный.	alohida tartibi; norasmiy; ~ **-owned** xususiy egalikda bo'lish, xususiy.
PRIVILEGE	
Привелегия ~ **parlament** – депутатская неприкосновенность	imtiyoz ~ **parlament** – noiblik daxlsizligi
PRIVILEGED	
Привилегированный ~ **communication** – конфеденциальная сообщение	imtiyoz egasi ~ **communication** – faqat maxsus shaxsgagina
PROBABLE	
Вероятный , возможный , ~ **absence** –допустимая неявка ~**consequence** вероятное последствие ~**evidence** косвенное доказательство ~ **presumption** вероятная презумпция	Taxminiy , ehtimoldan holis emas, nazarda tutilgan ~ **absence** – kelmaslik ehtimoli ~**consequence** tahminiy oqibat ehtimoli ~**evidence** tahminiy dalil ~ **presumption** tahminiy ehtimollik
PROBATION	
Доказательство , система испытания ~ **officer** – инспектор , наблюдающий за работающим преступником ~ **order** приказ суда о системе испытаний ~ **period** испытательный срок ~ **service** - служба исполняющие приговор о испытании	Isbot, sinov tizimi ~ **officer**-ishdagi jinoyatchini nazorat qiluvchi nozim ~ **order** sudning sinov sharti berilgani haqida buyruq ~ **period** sinov muddati ~ **service** sinovdagi maxbuslar haqidagi hukmni ijro etuvchi xizmat
PROBATIONARY	
Испытательный	Sinovga oid

PROBATIONER	
Преступник на испытании	Sinovdagi maxbus
PROBATIVE	
Доказательный ~ **fact** факт доказательства ~ **force** доказательная сила	Isbotlovchi ~ **fact** isbotlovchi dalil ~ **force** isbotlovchi kuch
PROCEDURAL	
Процедурный ~**Committee**- Процедурный комитет ООН	Taomilga oid~**Committee**-BMT taomillar qo'mitasi
PROCEDURE	
Процедура,процесс	Taomil, jarayon
PROCEED	
Привлекать к суду ~**ing** – процессуальное действие ~**in error**-производство по жалобе на неправильное решение ~**in open court** -открыто судебное заседание ~**in revision** – производство по пересмотру дела **preliminary** ~ предварительное расследование **institute**~ возбуждать дело	Javobgarlikka tortmoq~**ing** – taomillar ~**in error**- notug'ri hukmning arizasi ko'riladigan sud majlisi ~**in open court** ochiq sud majlisi ~**in revision** – ishlarni qayta ko'radigan sud majlisi **preliminary** ~ -dastlabki tergov **institute** ~ -ish qo'zg'amoq
PROCESS	
Приказ суда ,процедура ~ **of law** законная процедура ~ **ing of document** - оформление документов	Sud qarori, taomil ~ **of law** qonuniy jarayon ~ **ing of document** hujjatlarni tartibga keltirish
PROCLAIM	
объявлять	E'lon qilmoq
PROCLAMATION	
Воззвание декларации ~ **of neutrality** – об'явление нейтралитета	Bayonot, e'lon ~ **of neutrality** – betaraflik e'lon qilmoq
PROCURACY	
Доверенность полномочия	Vakolat huquq
PROCURATION	
Доверенность полномочия	Vakolat huquq
PROCURATOR	
Поверенный **public** ~ обвинитель , прокурора ~ **office** – прокуратура	Muxtor, prokuror **public** ~ qoralovchi ~ **office** – prokuror mahkamasi

PROCURE	
Доставать – **a crime** – способствовать совершению преступления	Erishmoq ~ **a crime** –birovni jinoyat sodir etishga undamoq
PRODUCE	
Предъявлять ~ **innocence** – признавать невиновным	Taqdim etmoq ~ **innocence** – aybsizlikni tan olmoq
PRODUCTION	
Предъявление ~ **of arguments** – представление доводов	Hujjatni ko'rsatish ~ **of arguments** – da'voni ro'kach qilish
PROFESS	
Открыто признаваться	Ochiq tan olish
PROFESSIONAL	
Профессиональный ~ **criminal** профессиональный преступник ~ **sharper** – шулер - профессионал	Mutaxasis ~ **criminal** ashaddiy qonunbuzar ~ **sharper** – qimor o'ynida qallob
PROFIT	
Выгода, польза	Foyda, manfaat
PROFITEER	
спекулянт	Chayqovchi
PROHIBIT	
Запрещать	taqiqlamoq
PROHIBITION	
Запрещение **statutory** ~ запрещение по закону	Taqiq **statutory** ~ qonundagi ta'qiq
PROLONG	
пролонгировать	Muddatni cho'zmoq
PROMOTE	
Способствовать , содействовать ~ **justice** содействовать справедливости	qo'llamoq ~ **justice** adolat o'rnatilishiga erishmoq
PROMOTION	
Основания общества, повышение должности	Jamoaning asosi, mansab ko'tarilishi
PROMULGATE	
обнародовать	E'lon qilmoq
PRONOUNCE	
Объявлять формально	Rasman e'lon qilmoq

~ **a judgement** выносить судебное решение ~ **a sentence** объявлять меру наказания	~ **a judgement** sud qarorini chiqarmoq ~ **a sentence** - jazo chorasini e'lon qilmoq
PRONOUNCEMENT	
Вынесение решения , об'явление , мнение , заключение	qaror qabul qilmoq, xulosa chiqarmoq, fikr, e'lon qilmoq
PROOF	
Доказательство **burden of**~ бремя доказования **offer\produce/show** ~ представлять доказательство **literal** ~письменное доказательство **want of**~ недостаток доказательств ~**of motive** доказательство мотива	Isbot, dalil **burden of** ~ isbot vazni **offer\produce/show** ~isbot taqdim qilmoq **literal** ~ yozma dalil **want of**~dalilning etishmasligi ~ **of motive** sababning isboti
PROPENSITY	
склонность	moyillik
PROPER	
Надлежащий , правильный , присущий ,свойственный ~**evidence** – признаваемое судом доказательство ~**precaution** надлежащая мера предосторожности ~**warning** надлежащее предупреждение	haqqoniy, to'g'ri, mos, xos ~**evidence** haqqoniy sud tan oladigan dalil ~**precaution** zaruriy extiyot chorasi ~**warning** zarur ogohlantirish
PROPERLY	
Надлежащим образом , собственно , в узком смысле слова	Kerakli tarzda, to'laligicha, boplab, aslida, aslini olganda
PROPERTY	
Имущество , собственность ~ **law** право собственности ~ **qualification** имущественный ценз ~ **tax** налог с дохода недвижимого имущества	Mulk(xususiy), boylik ~ **law** mulkka egalik huquqi ~ **qualification** mulkka egalik chegarasi, cheklanishi ~ **tax** ko'chmas mulk daromad solog'i
PROPRIETARY	
Собственнический ~ **interest (right)** - право собственности	Mulkiy ~ **interest (right)** - mulkka egalik huquqi
PROPIETOR	
собственник	Mulkdor, tadbirkor
PROPRIETY	
Правильность , обоснованность	To'g'rilik, asoslanganlik

PROSCRIBE	
Объявлять вне закона , запрещать	Noqonuniy deb tan olmoq, taqiqlamoq
PROSECUTE	
Преследовать в судебном (уголовном) порядке ~ **in inquiry** – проводить расследование	Qonun ta'qibiga (nazoratiga) olmoq ~ **in inquiry** – tergov qilmoq , tekshiruv o'tkazmok
PROSECUTION	
Судебное преследование , обвинение	Ayblov, javobgarlikka sudga tortmoq
PROSECUTOR	
Лицо , возбуждающее и осуществляющее уголовное преследование , обвинитель **chief** ~ главный обвинитель **public**~ прокурор	Ayblovchi, qoralovchi, jinoyat ishi qo'zg'ovchi **chief** ~bosh ayblovchi **public**~ jamoatchilik nomidan ayblovchi, prokuror
PROSECUTING ATTORNEY	
прокурор	Qonunga itoat etilishini talab qiluvchi, prokuror
PROTEST	
Протест(овать) **enter a** ~ -заявлять протест	Norozilik (bildirmoq), e'tiroz, qarshilik **enter a** ~ norozilik bayon qilmoq
PROVE	
Доказывать ~ an **alibi** –доказывать алиби	Isbotlamoq ~ **an alibi** – oqlash uchun sabab ko'rsatmoq
PROVINCE	
Провинция , область , компетенция	Viloyat, hudud, ta'sir doirasi
PROVISION	
Условное постановление , положение	Shartli ravishda qabul qilingan qaror
PROVISIONAL	
Временный ~ **committee** Временный комитет ~**government** - временное правительство ~**presumption** - предварительная презумпция	Vaqtincha ~ **committee** muvaqqat qo'mita ~**government** - muvaqqat xukumat ~**presumption** vaqtinchalik xulosa
PROVISO	
Условие , оговорка	Shart, izoh, eslatma

PUBLIC	
Государственный , общественный , открытый , народ ~ **agency** – общественные орган ~**agent** – представитель власти ~**authority** орган государственной власти ~ **benefit (good)** – общественное благо ~ **conduct** общественное поведение ~ **debt** государственный долг ~ **domain** государственная собственность ~ **enemy** социально опасный элемент ~ **evil** общественное зло ~ **health** здравоохранение ~**hearing** открытое дело ~ **instrument** средство общественного воздействия ~ **meeting** открытое заседание ~ **nuisance** нарушение общественного порядка ~ **officer** - должностное лицо ~ **peace** - общественный порядок ~ **place** общественное место ~ **policy** общественный порядок ~ **prosecutor** общественный прокурор ~ **revenues** доходы государства ~ **safety** общественная безопасность ~ **trial** открытый судебный процесс ~ **works** коммунальные учреждения , общественные работы ~ **wrong** вред публичного характера	Davlatga oid, ommabob, ochiq, **jamoa** ~ **agency** jamoat organi ~**agent** –hukumat vakili ~**authority** davlat hokimiyati organi~ **benefit (good)** –jamoatchilik manfaati ~ **conduct** jamoat joyida ahloq, o`zini tutish ~ **debt** davlat qarzi ~ **domain** davlat mulki ~ **enemy** ijtimoiy jihatdan xavfli unsur ~ **evil** ijtimoiy yovuzlik ~ **health** - sog`likni saqlash ~**hearing** -ochiq ish (sudda) ~ **instrument** –jamoatchilik ta'sir quroli ~ **meeting** - ochiq majlis ~ **nuisance** jamoat tartibi buzilishi~ **officer** - mansabdor shaxs ~ **peace** - jamoat tartibi ~ **place** jamoatchilik yig'iladigan joy ~ **policy** - jamoat tartibi ~ **prosecutor** - jamoatchilik nomidan ayblovchi, prokuror ~ **revenues** davlat daromadi ~ **safety** –jamoat xavfsizligi ~ **trial** ochiq sud majlisi~ **works** ommaviy ishlar, jamoatchilik muassasalari~ **wrong** – jamiyatga keltirilgan zarar

PUBLICATION	
Опубликование , издание	Nashr etish
PUBLICITY	
Гласность	oshkoralik
PUNISH	
наказывать	jazolamoq
PUNISHABLE	
наказываемый	Jazolanadigan, jazoga loyiq
PUNISHMENT	
Наказание **capital** ~ (**of death**) смертная казнь ~**endured**- отбытое наказание **blood (bodily , corporal)** ~ -телесные наказания ~**cell** карцер	Jazo **capital** ~ (**of death**) oliy o'lim jazosi ~**endured** – o'talgan jazo **blood (bodily , corporal)** ~ -tan jazosi ~**cell**-mahkumlar saqlanadigan xibsxona, zindon
PUNITIVE	
Карательный ~ **expedition** – карательная экспедиция ~ **justice** – уголовная юстиция	Jazolovchi ~ **expedition** – jazo ekspeditsiyasi ~ **justice** – jinoiy ishlar adliyasi
PURCHASE	
Покупать , купля	Sotib olmoq , xarid qilmoq
PURE	
Чистый ~ **obligation** – безусловное обязательство	Sof, toza, musaffo ~ **obligation** – xolis burch, sof majburiyat
PURPOSE	
Умысел , цель	Maqsad , niyat
PURSUE	
Преследовать , проводить ~ **a policy** – проводить политику	ko'zlamoq, olib bormoq, maqsad qilib qo'ymoq ~ **a policy** – siyosat olib bormoq
PURSUIT	
преследование	Ko'zlash, niyat qilish !

– Qq –

QUAESTUS	
лат. недвижимость, приобретаемая, покупаемая, но не наследуемая.	lot. qo'lga kiritilgan, sotib olinadigan ko'chmas mulk, lekin meros mulki emas.
QUALIFICATION	
1. оговорка; ограничение; 2. условие предоставления права: ценз; 3. квалификация; **possess** ~ удовлетворять требованиям; **property** ~ имущественный ценз; **rating/tax** ~ налоговый ценз.	1.cheklov; 2. huquqni tanishtirish sharti; senz; 3. kvalifikatsiya; **possess** ~ talablarni qondirish; **property** ~ mulk senzi; rating/tax ~ soliq senzi.
QUALIFICATORY	
квалифицирующий, ограничительный.	izohlovchi, cheklovchi
QUALIFIED	
условный, ограниченный, квалифицированный, ~ **neutrality** неполный нейтралитет.	malakali, shartli, cheklangan; ~ **neutrality** chala (to'la bo'lmagan, cheklangan) betaraflik.
QUALIFY	
1. отвечать требованиям; обладать правом; обладать цензом; 2. ограничивать; 3. квалифицировать, определять.	1. talablarga javob bermoq; huquqqa ega bo'lmoq; senzga ega bo'lmoq; 2. cheklamoq; 3. kvalifikatsiyalamoq, darajasini belgilamoq, aniqlamoq.
QUALITY	
качество: сорт; свойство; **contract** ~ качество, оговоренное контрактом; ~ **a rule** ограничивать действие нормы	sifat; nav; xususiyat; **contract** ~ shartnomada kelishilgan sifat. ~ **a rule** xatti-harakatni cheklamoq.
QUALIFYING PERIOD OF RESIDENCE	
ценз оседлости	o'troqlik (doimiy yashash)ning belgilangan chegarasi.
QUANTUM MERUIL	
лат. справедливое вознаграждение за выполненную работу, оплата по справедливой оценке.	lot. bajarilgan ish uchun odilona mukofot, odilona baholash bo'yicha to'lov.

QUARANTINE	
карантин.	karantin.
QUARREL	
1. спор; 2. ссора; ~ **at law** судебный спор.	1. tortishuv; 2. nizo. bahs; ~ **at law** sud tortishuvi
QUARTER	
четверть; квартал.	chorak
QUARTER SESSION OF THE PEACE	
ежеквартальная сессия коллегии мировых судей.	har chorakda o'tkaziladigan sud hay'ati majlisi
QUARTER SESSIONS	
суд четвертных (квартальных) сессий.	yakuniy chorak majlislari sudi
QUASH	
аннулировать; отменять; признавать недействительным.	bekor qilmoq; rad qilmoq; bekor qilingan deb topmoq.
QUASHAL	
отмена, аннулирование; лишение юридической силы; признание недействительным.	rad qilish; bekor qilish; yuridik kuchdan mahrum qilish; haqiqiy emas deb tan olish.
QUASI	
лат. квази; как будто, якобы, почти, как если бы.	lot. kvazi; huddi, deyarli, agar ... dek.
QUASI-CONTRACT	
квази-договор.	kvazi-shartnoma.
QUASI-CONTRACTUAL	
квази-договорный.	kvazi-shartnomaviy.
QUASI-CORPORATION	
квази-корпорация.	kvazi-korparatsiya.
QUASI-DELICT	
квази-деликт.	kvazi-delikt.
QUASI-EASEMENT	
квази-сервитут.	kvazi-servitut.

QUASI-PERSONALTY	
квази-движимость (вещи, соединенные с недвижимостью, арендные права).	kvazi-mulk (ko'chmas mulkka qo'shilgan buyumlar, ijara huquqlari).
QUASI-POSSESSION	
квази-владение, пользование правом.	kvazi-egalik, huquqdan foydalanish.
QUEEN'S BENCH DIVISION	
отделение королевской скамьи (Высокого Суда правосудия в Великобритании)	(Britaniyada) qirolicha huzuridagi Oliy Sud hay'ati bo'limi
QUEEN'S BENCH DIVISIONAL COURT	
апелляционное присутствие отделения королевской скамьи (в Великобритании)	qirolicha huzuridagi Oliy Sud hay'ati bo'limining quyi sudlar qarori ustidan qilingan shikoyatlarni ko'rish jarayonidagi ishtiroki
QUEEN'S COUNSEL	
королевский адвокат	qirolicha advokati, oqlovchisi
QUEEN'S SPEECH	
тронная речь	qirolichaning (taxtda turib aytiladigan) nutqi
QUERENS	
лат. истец.	lot. da'vogar.
QUESTION	
1. опрос; вопрос; 2. спрашивать; опрашивать; допрашивать; 3. возражение; сомнение; 4. подвергать сомнению; ~ **at issue** спорный вопрос; **cross** ~ перекрестный допрос; **judicial** ~ вопрос, подлежащий компетенции судебной власти; **leading** ~ наводящий вопрос ; ~ **of confidence** вопрос о доверии; ~ **of fact** вопрос факта; ~ **of law** вопрос права;	1. so'rov; savol; 2. so'ramoq; so'roq qilmoq; so'roqqa tortmoq, tergov qilmoq; 3. e'tiroz; shubha; 4. shubha uyg'otmoq; ~ **at issue** tortishuvli savol; **cross** ~ to'rt tomonlama qarama-qarshi shaklidagi so'roq, tergov; **judicial** ~ sud hokimiyatiga tegishli masala; **leading** ~ yetaklovchi savol; ~ **of confidence** ishonch masalasi;

~ **time** «час вопросов» правительству в английском парламенте.	~ **of fact** voqelik masalasi; ~ **of law** huquq masalasi; ~ **time** (Britaniya parlamentida) savollar uchun ajratilgan vaqt.
QUESTIONABLE	
сомнительный; ~ **points** спорные места.	shubhali. savol tug'diradigan; ~ **points** munozara (bahs)li o'rinlar
QUESTIONING	
допрос.	so'rov, tergov.
QUICK	
живущий, живой; ~ **assets** ликвидные активы; ~ **with child** зачав ребенка.	yashovchi, tirik; ~ assets likvid aktivlari; ~ **with child** homilador qilish/ayolni urug'lantirish.
QUIETE CLAMARE	
лат. отказываться от всех претензий на права и титул.	lot. huquq va maqomga bo'lgan barcha e'tirozlani rad etmoq.
QUIETING	
успокаивающий, успокоительный; ~ **the title** отрегулирование титула (иск с целью устранить пороки правового титула).	tinchlantiruvchi; ~ **the title** maqomni tartibga solmoq (huquqiy maqom nuqsonlarini aniqlash maqsadidagi da'vo).
QUIT	
1. выплачивать (деньги); 2. освобождать (от обязательств); 3. уходить, покидать, увольняться с работы; 4. увольнение с работы.	1.(pul) to'lamoq; 2. (majburiyatdan) ozod qilish; 3. ketmoq, tashlab ketmoq, ishdan bo'shamoq; 4. ishdan bo'shash.
QUITCLAIM	
1. отказ от права; совершение акта отказа от права; 2. отказываться от права.	1. huquqdan voz kechish; huquqdan voz kechish dalolatnomasini tuzish; 2. huquqdan voz kechmoq.
QUITTANCE	
1. освобождение (от ответственности); погашение долга; 2. расписка; 3. отказ от права.	1. (majburiyatdan) ozod qilish; qarzni to'lash; 2. tilxat; 3. huquqdan voz kechish.
QUOD COMPUTET	
лат. решение о предоставлении в суд отчетности.	lot. sudda hisobot keltirish haqida qaror.

QUOD PARTES REPLACITENT	
лат. решение о повторном обмене состязательными бумагами.	lot. tortishuvli hujjatlarni qayta almashtirish haqida qaror.
QUOD RECUPERET	
лат. решение о при суждении убытков.	lot. zararlarni sudda ko'rish haqida qaror.
QUOD RESPONDEAT OUSTER	
лат. решение о представлении ответчиком объяснений по существу дела.	lot. ishning mavjudligi bo'yicha javobgarga tushuntirish berish haqida qaror.
QUORUM	
кворум	kvorum (majlis a'zolarining majlisda qabul qilingan qaroming qonuniy kuchga ega bo'lishi uchun zarur bo'lgan miqdori)
QUOTA	
1. квота; товарный контингент; 2. доля, часть.	1. kvota; tovar kontinenti; 2. ulush, qism.
QUOTATION	
1. котировка; курс; цена; 2. цитирование, цитата; ссылка.	1. kotirovka; kurs, narx; 2. iqtibos keltirish, iqtibos; biror kimning fikriga murojaat.
QUOTE	
1. цитировать, ссылаться; 2. назначать цену; котировать(ся).	1.iqtibos keltirmoq, biror kimning fikriga murojaat; 2. narx belgilamoq; bahosini belgilamoq.

RASKET	
вымогательство; рэкет; шантаж; мошенничество; обман.	tovlamachilik; reket; qo'rqitish; ta'magirlik; muttahamlik; qalloblik; firibgarlik.
RACKETEER	
гангстер; бандитвымогатель.	qaroqchi; yo'lto'sar; ta'magir; bezori; muttaham; talonchi.
RACKETEERING	
1. бандитский; вымогательство; 2 **political** ~ полотический террор и подкуп.	1. qaroqchilik; ta'magirlik; talonchilik; 2. **political** ~ siyosiy terrorchilik va sotib olish
RAID	
внезапный рейд на место предполагаемого совершения преступления; совершать облаву.	jinoyat sodir etish mo'ljallangan joyga qo'qqisdan bostirib kirish; kutilmagan hujum.
RAISE	
1. поднимать (вопрос); создавать; возбуждать (дело); вызыват; 2. собират; взимат (налоги, пошлины); 3. получать (ссуду); 4. повышение, увеличение; ~ **defence** против иска; ~ **an embargo** отменять эмбарго; 5. ~ **blokade** снимать блокаду; 6. ~ **discontent** возбуждать недовольство; 7. ~ **loan (money)** делать заем; 8. ~ **objection** выдвигать возражения; 9. ~ **suspicion** возбудить подозрение	1. ko'tarmoq (savol); tuzmoq; (ish) qo'zg'atmoq; 2. (soliqlar, bojlar) undirmoq; yig'moq; 3. (ssuda) olmoq; 4. oshirish, ko'paytirish; ~ **defence** da'voga qarshi; ~ **an embargo** embargo (chet el mollarini mamlakatga keltirish yoki mamlakatdan chiqarishni davlat tomonidan taqiqlab qo'yish)ni bekor qilish; 5. ~ **blokade** qamalni bekor qilmoq; 6 ~ **discontent** norozilik bildirmoq; 7. ~ **loan (money)** qarz ko'tarmoq; 8. ~ **objection** e'tiroz bildirmoq; 9. ~ **suspicion** shubhalanmoq, ishonchsizlik bildirmoq
RANK	
1. общественное положение, ранг; чин; 2. чрезмерный; **diplomatic** ~ дипломатический ранг.	1.ijtimoiy holat, martaba; amal; 2. haddan tashqari ortiq darajada; **diplomatic** ~ diplomatik martaba.
RANSON	

выкуп; выкупать	qalin to'lamoq; badal to'lamoq.
RAPE	
1. изнасилование; 2. изнасиловать.	1.nomusga tegish; zo'rlamoq, majburlamoq; kuch ishlatish orqali o'z niyatiga yetmoq; 2. nomusga tegmoq.
RASURE	
подчистка в документе.	hujjatdagi tozalov.
RATABLE	
1. налогооблагаемый, подлежащий обложению (налогом); 2. соразмерный, пропорциональный.	1. soliqqa tortiladigan, soliq solinadigan; 2. muvofiq, mos keladigan.
RATE	
1. размер; ставка; тариф; такса; цена; курс; процент; 2. оценивать; исчислять; таксировать; тарифицировать; устанавливать (тариф, курс и т. п.); 3. местный налог (коммунальный); ~ **cap** положение в долговом соглашении, ограничивающее рост процентной ставки; 4. ~ **of insurance** страховая премия; 5. ~ **of interest** процентная ставка; **6. ~ tariff** тарифная ставка. 7. ~ **and laxes** местные сборы и государственные налоги	1. hajm; stavka; tarif; taksa; narx; kurs; foiz; 2. baholamoq; hisoblamoq; narx belgilamoq; tariflashtirish; (tarif, kurs va b.) o'rnatmoq; 3. mahalliy (komunnal) soliq; ~ **cap** qarz kelishuvidagi holat. foizli stavkalarni o'sishini cheklash; 4. ~ **of insurance** sug'urta mukofoti; 5. ~ **of interest** foizli stavka; 6. ~ **tariff** tarifli stavka. 7. ~ **and laxes** mahalliy yig'imlar va davlat soliqlari.
RATIFICATION	
ратификация; последующее одобрение; ~s документы о ратификации, ратификационные грамоты.	ratifikatsiya; galdagi maqullash; ~s ratifikatsiya haqidagi hujjat; ratifikatsiya yorliqlari.
RATIFY	
ратифицировать; одобрять; утверждать.	ratifikatsiya qilmoq; ma'qullamoq; tasdiqlamoq.
RATING	
обложение налогом, сумма налога.	soliqqa tortish, soliq solish, soliq summasi.
RAVISH	

насиловать, изнасиловать.	majbur qilimoq, nomusga tegmoq.
RAVISHMENT	
изнасилование.	nomusga tegish.
RE	
лат. 1. в деле, по делу, дело (в наименованиях судебных дел); относительно, касательно.	lot. 1. ishda, ish bo'yicha, ish (sud ishlarini nomlashda); tegishli, taalluqli.
READ	
обсуждать; рассматривать (законопроект); толковать глосить	(qonun loyihasini) o'qimoq; muhokama qilmoq; izohlamoq; oshkor qilmoq; bayon qilmoq.
READING	
чтение; о бсуждение; толкование; оглашение; показание (приборов); **first** ~ первое чтение (принятие к обсуждению).	o'qish; muhokama; bayon; (asboblarning) ko'rsatish(i); **first** ~ birinchi o'qish (muhokamaga qabul qil(in)ish).
second ~ второе чтение (дебаты и принципиальное одобрение); **third** ~ третье чтение (принятие окончательного текста).	**second** ~ ikkinchi o'qish (muhokama, munozara qilish va maqullash jarayoni; **third** ~ uchinchi o'qish (taqdim etilgan loyihaning yakuniy ko'rinishini qabul qilish jarayoni).
REAL	
1. реальный; вещественный; вещный; недвижимый (об имуществе); земельный; действительный, настоящий, истинный; 2. ~ **evidence** вещественные доказательства; 3. ~ **estate (property)** недвижимое имущество.	1. real, haqiqatdan mavjud; moddiy; ashyoviy; ko'chmas (mulk haqida); yerga doir; haqiqiy, asil, mazkur, chinakam; 2. ~ **evidence** ashyoviy dalil; 3. ~ **estate (property)** ko'chmas mulk.
REALM	
область, сфера; государство, королевство; ~ **of possibility** пределы возможного.	tasarruf doirasi; viloyat, saltanat, **davlat; ~ of possibility** imkon doirasi.
REALTOR	
агент по операциям с недвижимостью.	ko'chmas mulk operatsiyasi bo'yicha agent/vakil
REALTY	

недвижимость, недвижимое имущество.	ko'chmas mulk.
REASON	
причина; основание; мотив; излагат мотивы; **valid** ~ уважительная причина.	sabab; asos; vaj; bayon qilmoq; **valid** ~ uzrli sabab.
REASONABLE	
справедливый; разумный; соответствующий; 2. ~ **cause (ground)** разумные основания; 3. ~**excuse** уважительная причина; 4. ~**time** разумный срок.	haqqoniy; insofli; oqilona; adolatli; mos; chidasa bo'ladigan; ma'qul; 2. ~ **cause (ground)** haqqoniy asos; 3. ~**excuse** uzrli sabab; 4. ~**time** haqqoniy (insof doirasidagi) muddat.
REASONABLY	
с основанием.	asosli tarzda; insof bilan; adolatli tarzda.
REASONING	
изложение мотивов, основания вынесенного решения.	asoslash; chiqarilgan hukmning asoslanishi.
REBEL	
восставать; повстанец.	isyon ko'tarmoq; qo'zg'alon qilmoq; isyonkor, qo'zg'olonchi.
REBELLION	
восстание, мятеж; неповиновение.	qo'zg'olon, isyon; itoatsizlik.
REBUT	
1. третье возражение ответчика; опровержение; 2. опровергать; представлять контрдоказательства; **3. ~ a defense** опровергнуть доводы защиты; опровергнуть защиту.	1. javobgarning uchinchi e'tirozi; raddiya; 2. rasmiy rad etish; isbot keltirmoq; 3. ~ **a defense** himoyaning asosiy dalilini rad etish; himoyani rad etish;
REBUTTING EVIDENCE	
контр-доказателства.	rad qiluvchi isbot; inkor etuvchi dalil.
REBUTMENT	
опровержение.	rad etish. inkor; raddiya.
REBUTTAL	
Опровержение.	inkor; raddiya.
RECALL	
1. отмена; отзыв; 2. отменять; отзывать.	1. bekor qilish; javob qilish; 2. bekor qilmoq; javob bermoq;

3. брать обратно; отзыват; отменять; возвращениепреступника (в тюрьму); 4. ~ **judjement** отменять решении;	3. qaytarib olmoq; chaqirib olmoq; bekor qilmoq; (mahkumni qamoqqa) qaytarib yubormoq; 4. ~ **judjement** hukmni bekor qilmoq;
RECAPTION	
изъятие вещи из чужого владения в порядке самопомощи.	birovning egaligidagi buyumlarni o'ziga yordam tartibida olish.
RECEIPT	
1. получение; расписка в получении; квитанция; 2. выдавать расписку в получении, расписываться в получении; **custody** ~ сохранная расписка; **delivery** ~ расписка в получении; **deposit** ~ депозитная квитанция; сохранная расписка: **luggage** ~ багажная квитанция; 2. **until recalled receipt** впередь до отмены получение; расписка в получение; выдавать расписку; 3. **against** ~ под расписку; 4. **on** ~ по получении.	1. olish; olishdagi tilxat; kvitansiya; 2. olganlik haqida tilxat bermoq; olishda imzo chekmoq; **custody** ~ saqlangan tilxat; **delivery** ~ qabul qilishdagi tilxat; **deposit** ~ depozit kvitansiyasi; **luggage** ~ yuk/bagaj kvitansiyasi; 2. **until recalled** bekor qilgunga qadar tilxat; tilxat bermoq; 3. against ~ tilxat asosida; 4. **on** ~ tilxat asosida (olmoq).
RECEIVE	
1. получать, принимать; 2. ~ **offender** укрывать пруступника; 3. ~ **into prison** помущать в тюрьму; 4. ~ **sentence** быть приговоренным.	1.qabul qilmoq, olmoq; 2. ~ **offender** jinoyatchini qabul qilmoq (yashirmoq); 3. ~ **into prison** (jinoyatchini) qamoqqa qabul qilmoq, joylashtirmoq; 4. ~ **sentence** hukmni olmoq; mahkum etilmoq.
RECEIVER	
1. получатель; укриватель похищенного имущества; 2. управляющий конкурсной массой; 3. сборщик налогов; 4. ~ **in bankruptcy** управляющий конкурсной массой при банкротстве; 5. ~ **of customs** администратор таможенных доходов; 6. **official** ~ официальный ликвидатор.	1. qabul qiluvchi; o'g'irlangan molni yashiruvchi; 2. ommaviy tanlovni boshqaruvchi; 3. soliq yig'uvchi; 4. ~ **in bankruptcy** bankrotlikda ommaviy tanlovni boshqaruvchi; 5. ~ **of custom** bojxona daromadlari boshqaruvchisi; 6. **official** ~ rasmiy yo'q qiluvchi/likvidator.

RECEIVING	
1. принимающий; 2. ~ **house** дом приема краденного; 3. ~ **prison** распределительная тюрьма.	qabul qiluvchi; 2. ~ **house** o'g'irlangan mollarni qabul qiladigan uy; 3. ~ **prison** (mahbuslarni) taqsim qiladigan turma.
RECEIVERSHIP	
1. администрация доходов; 2. статус и функции лица, назначенного управлять имуществом банкрота/ имуществом, являющимся предметом судебного спора.	1. daromadlar ma'muriyati; 2. sud nizosi predmeti bo'lgan mulklar/ bankrot mulklarini boshqarishga tayinlangan shaxs maqomi va vazifalari.
RECEPTION	
1. поступление, прием; 2. ~ **of evidence** получение, слушание показаний; 3. ~**on conviction(under sentence)** поступление (в тюрьму) по осуждении (по приговору).	1.qabul; kirim; 2. ~ **of evidence** ko'rsatmalarni qabul qilish (tinglash); 3. ~**on conviction (under sentence)** hukmlar asosida turmaga yangi kelganlarni qabul qilish.
RECESS	
перерыв в заседании делать перерыв; 2. ~ **for deliberation reciprocal** взаимный,двусторонный; 3. ~ **concessions** взаимные уступки; 4. ~ **contract** двусторонная сделка.	tanaffus, tanaffus qilmoq; 2. ~**for deliberation reciprocal** o'zaro; ikki tomonlama; 3. ~ **concessions** o'zaro bir-biriga yo'l berish; bir-birini fikrini e'tiborga olish; 4. ~ **contract** ikki tomon o'rtasidagi kelishuv (bitim).
RECIPROCAL	
взаимный; двусторонний.	o'zaro; ikkitomonlama.
RECIPROCATE	
действовать на началах взаимности.	o'zaro boshlanishga ta'sir qilmoq.
RECLAIM	
требовать обратно, истребовать.	qayta talab qilmoq.
RECLAMATION	
1. требование о возвращении; 2. предъявление претензии; 3. рекламация.	1.qaytarish haqida talab; 2. e'tiroz bildirish; 3. norozilik.
RECKLESS	
небрежный; неосторожный; 2. ~**carelessness** самонадеянная небрежность;	ehtiyotsiz; loqayd; 2. ~**carelessness** manmanlikka xos loqaydlik;

3. ~ **driving** вождение с нарушением правил уличного движения.	3. ~ **driving** yo'l harakati qoidalarini buzib mashina haydash.
RECOGNITION	
1. официальное признание; опознание; 2. ~ **de fecto** фактическое признание; 3. ~ **de jure** юридическое признание; 4. **withhold ~from a state** не признавать государство.	1. rasmiy tan olish; tanish; 2. ~ **de fecto** haqiqiy tan olish; 3. ~ **de jure** qonuniy tan olish; 4. **withhold ~from a state** davlatni tan olmaslik
RECOGNISANCE	
1. обязательство, данное в суде; 2. залог (при поручительстве); 3. **on one's own**~ под подписку о невыезде.	1. sudda berilgan majburiyat; 2. (kafillikdagi) garov; 3. **on one's own** ~ yashash joyi hududidan ruhsatsiz chiqib ketmaslik haqidagi tilxat asosida.
RECOGNIZE	
